

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**“Bank va moliya xizmatlari” fakulteti
“Buxgalteriya hisobi va audit ” kafedrasи
BH-114 guruh**



Bitiruv malakaviy ishi

**MAVZU: Parrandachilik korxonalarida xarajatlar hisobi va
auditi (“Samarqand parranda ” AJ misolida)**

Bajardi: BH-114 guruh talabasi Majidov A.

Ilmiy rahbar: Katta o'qituvchi Amonov. A. O

Samarqand – 2018

MUNDARIJA

| | |
|--|-------|
| Kirish..... | |
| I-bob . Parrandachilik korxonalarida xarajatlar hisobi va auditining nazariy asoslari | |
| 1.1 Parrandachilik korxonalarida xarajatlar hisobining nazariy asoslari | |
| 1.2 Parrandachilik korxonalarida xarajatlar auditining nazariy asoslari | |
| 1.3 " Samarqand parranda " AJ korxonasi faoliyati hamda uning umumiyl tavsifi va tasnifi | |
| II-bob . Parrandachilik korxonalarida xarajatlar hisobining tashkil etish uslubiyoti | |
| 2.1 Parrandachilik korxonalarida asosiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobi... | |
| 2.2 Parrandachilik korxonalarida yordamchi va umumiyl ishlab chiqarish xarajatlari hisobi | |
| III-bob . Parrandachilik korxonalarida xarajatlar auditining tashkiliy va metodologik jihatlari | |
| 3.1 Parrandachilik korxonalarida xarajatlar auditining manbalari va audit o'tkazish ketma-ketligi | |
| 3.2 Parrandachilik korxonalarida asosiy ishlab chiqarish xarajatlari va tannarx kalkulatsiyasi auditi | |
| 3.3 Parrandachilik korxonalarida yordamchi va umumiyl ishlab chiqarish xarajatlari va ularni taqsimlanish auditi | |
| IV-bob. Korxonada hayot xavfsizligini ta'minlash..... | |
| Xulosa..... | |
| Fydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati..... | |
| Ilovalar..... | |

Kirish

Mamlakatimiz iqtisodiyoti bundan ham jadal rivojlanishi uchun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyov Miromonovich 2017-yil 7-fevraldagagi PF 4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi buyicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqdi¹. Harakatlar strategiyasini „Xalq bilan muloqat va inson manfaatlari yili” da amalga oid Davlat dasturining tasdiqlanishi strategik rivojlanishning ustuvor yunalishlarini amaliy ro‘yogda chiqarishning boshlang‘ich mexanizmi bo‘ldi.

Mavzuning dolzarbligi. Barcha jismoniy shaxslarga tadbirkorlik bilan shug‘illanish uchun keng imkoniyatlar yaratilib berilmoqda. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun molivaviy tomondan turli xil imtiyozli kreditlar, huquqiy tomondan esa yagona darcha orqali barcha huquqiy-me’yoriy hujjatlarini bir joyda hal qilish imkoniyatlari yaratildi.

Qayd etish lozimki, parrandachilik sohasi hozirgi kunda O‘zbekiston agrosanoat komplekisida qisqa vaqt ichida parranda mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirgan hamda aholini yuqori sifatli tuxum va parranda go‘shti bilan taminlangan, kun sayin rivojlanayotgan sohalardan sanaladi.

So‘nggi yillarda parrandachilik korxonalari tajribasi va ular erishib kelayotgan yuqori ko‘rsatkichlarini ko‘rib ishonch bilan aytish mumkinki, hukumatimiz tamonidan belgilab qo‘ylgan vazifalar ijro etilmoqda. Biroq shuni ham unutmaslik kerakki, kadrlar malakasini oshirish, parrandachilik sohasini yuritishda xalqaro va mahalliy tajribalarni tahlil qilish va umumlashtirib borish lozim.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Xarajatlar mohiyati va ahamiyati, maqsadi va vazifalari hamda hisobi bir qator O‘zbekistonlik olimlar, mutaxassislar, jumladan, K.B.Urazov, H.N.Musaev, O.Bobojonov, I.Q. Ochilov, J.E. Qurbonboev va boshqalar o‘z ishlarida xarajatlar hisobi va auditni keng

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сонли Фармони билан тасдиqlangan “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси” “Халқ сўзи”, 2017йил, 8 феврал.

to‘xtalganlar, bu haqda ularning chop etilgan darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari, maqolalaridan bilib olish mumkin.

Tadqiqot ob’ekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ob’ekti “SAMARQAND-PARRANDA” AJ hisoblanadi. Tadqiqot predmeti esa “xarajatlar hisobi va auditii”dir.

Ishning tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, jami hajmi 66 betdan iborat. Kirish qismida tadqiqot to‘g‘risida, uning maqsadi va vazifalari va tadqiqot ob’ekti to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar berilgan. Asosiy qism esa ikki bobdan iborat. Uning birinchi bobida tadqiqotning nazariy qismi ochib berilgan. Ikkinci va uchinchi bobida esa amaliyotda ya’ni korxona misolida xarajatlar hisobini yuritilishi, uning auditii va takomillashtirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Xulosa va takliflar qismida «Xarajatlar hisobi va auditii»ning yuritilishi bo‘yicha xulosalar, takliflar va tavsiyalar berilgan. Ilovalarda esa korxona va uning hisob ma’lumotlari to‘g‘risidagi rasmiy hujjatlar kiritilgan.

I-bob. Parrandachilik korxonalarida xarajatlar hisobi va auditining nazariy asoslari

1.1. Parrandachilik korxonalarida xarajatlar hisobining nazariy asoslari


Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari deb, mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarga aytildi. Ularga xom-ashyo, material, yoqilg'i, amortizatsiya ajratmasi, ishchi-xizmatchilarga ish haqi va mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa xarajatlar kiradi. Agar bir xil mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarning jami summasini ishlab chiqarilgan mahsulot soniga taqsimlasak, ishlab chiqarilgan bir birlik mahsulotning tannarxini topamiz. Tannarx ko'rsatkichi korxona faoliyatida muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. U qancha, past bo'lsa, ishlab chiqarish rentabelligi shuncha yuqori bo'ladi. Tannarxga korxonaning hamma xarajatlari qo'shilmaydi, ba'zi xarajatlari boshqa manbalar hisobidan qoplanadi. Masalan, foyda hisobidan davr xarajatlari qoplanadi. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari xarajat kalkulyatsiya moddalari bo'yicha ishlab chiqarish turlari, xarajatlarning vujudga kelish joylari, mahsulot turlari bo'yicha buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Xarajatlarni hisobga olish hamda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishdan asosiy maqsad ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq xarajatlarni o'z vaqtida, to'laligicha va haqqoniy aniqlash, shu bilan birga ayrim mahsulotlarning haqiqiy tannarxini hisoblash hamda korxona resurslari va pul mablag'lari ishlatilishi ustidan nazoratni o'rnatishdan iborat. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda buxgalteriya hisobi islohoti amalga oshirilishi eng asosiy masalalar bo'yicha o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Avval 1995 yilda keyinchalik 1999 yilda "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"²gi Nizomning² qabul qilinishi mamlakatimiz buxgalteriya hisobida tubdan o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'ldi. Ushbu Nizom xarajatlarning mohiyati, korxonaning hisobot davridagi foydasi bilan bog'liqligidan kelib chiqib taqsimlashni belgilab berdi. Xarajatlar hisobining aynan

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 5 февралдаги 54-сонли қарори билан тасдиқланган «Махсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш бўйича харажатлар таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби ҳақидаги Низом» (кейинги ўзгариш ва қўшимчалар билан)

shu tizimga yaqinlashtirilishi bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobi bajarishi kerak bo'lgan vazifalardan kelib chiqdi. Hozirgi kunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqobatli kurash ketmoqda va ushbu kurashdagi asosiy vositalaridan biri bo'lib mahsulot tannarxini pasaytirish hisoblanmoqda. Ammo, xarajatlarni pasaytirish bo'yicha ma'muriy choralarga o'tishdan oldin ularni to'g'ri hisoblash va mahsulot turlari o'rtasida taqsimlash talab qilinadi. Xarajatlarni tasniflash bo'yicha ko'plab uslubiyotlar orasida eng keng tarqalganlari va amaliyotda ko'p qo'llaniladigan yondashuvlar quyidagilardan iborat: - Xarajatlarni ob'ektga bo'lgan munosabatiga ko'ra tasniflash; - Xarajatlarni ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga ko'ra tasniflash. Birinchi uslubiyot bo'yicha xarajatlar to'g'ri va egri xarajatlarga bo'linadi. To'g'ri xarajatlarni iqtisodiy jihatdan asosli usul bilan ob'ektga bevosita o'tkazish mumkin bo'ladi. Egri xarajatlar ob'ekt bilan bevosita aloqaga ega bo'lmaydi va odatda bir necha ob'ektlarga tegishli bo'ladi. Masalan ishlab chiqarish personalining mehnat xaqi to'g'ri xarajat bo'lsa, sex boshlig'ining mehnat xaqi egri xarajat hisoblanadi. Ushbu tasnif ishlab chiqarish xajmidan qat'iy nazar ma'lum turdag'i mahsulotni ishlab chiqarish to'g'risidagi qabul qilingan qarorning xarajatlarga ta'sirini o'rganishda qo'llaniladi. Ikkinci uslubiyotni qo'llaganda o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar ajratib ko'rsatiladi. O'zgaruvchan xarajatlarning umumiyligi summasi ishlab chiqarish hajmiga to'g'ri mutanosib ravishda o'zgarib turadi. Doimiy xarajatlarning umumiyligi summasi esa ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan o'zgarishsiz qoladi. Masalan, xom ash'yo va materiallar o'zgaruvchan xarajatlar, amortizatsiya ajratmalari esa doimiy xarajatlar. Yana shunday xarajatlar ham borki, ular ishlab chiqarish xajmiga nisbatan to'g'ri bo'limgan mutanosiblikda o'zgaradi. Bunday xarajatlarni shartli-doimiy yoki shartli o'zgaruvchan deb nomlash odat tusiga kirgan. Ko'pincha hisob-kitoblarni murakkablashtirmaslik uchun ularni o'zgaruvchan yoki doimiy xarajatlarga qo'shib yuborishadi. Yuqorida keltirilgan tasnifning mantig'idan xulosa qilib aytish mumkinki, u ishlab chiqarish xajmining xarajatlar miqdoriga ta'sirini o'rganishda qo'llaniladi. Xo'sh, ushbu ikki tasnif usulidan qay birining qo'llanilishi narx shakllantirish yoki biror mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha boshqaruv

qarorlarini qabul qilishda ko'mak bo'ladi. Buni aniqlash uchun har bir yondashuvning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqish talab etiladi. Xarajatlarni to'g'ri va egri xarajatlarga tasniflash mahsulot biriligini to'liq tannarx bo'yicha kalkulyatsiya qilishda qo'llaniladi. Bunda barcha to'g'ri xarajatlar va barcha egri ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga kiritiladi. Egri xarajatlar mahsulot turlari o'rtasida tanlangan taqsimot bazasiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Egri xarajatlarni taqsimlanish sxemasi. To'liq tannarx to'g'risidagi ma'lumotlar qo'yidagi xollarda zarur bo'lishi mumkin: Birinchidan, to'liq ishlab chiqarish tannarxi tugallanmagan ishlab chiqarish, tovar-moddiy zaxiralar miqdorini, tannarx va moliyaviy natija ko'satkichlarini aniqlash uchun asos bo'ladi.



1-rasm: Egri xarajatlarni taqsimlanish sxemasi .

Ikkinchidan, ushbu ko'rsatkich alohida mahsulotlar, mahsulotlar guruxi va bo'linmalar rentabelligini taxlili qilish imkonini beradi va ularni kelgusida ishlab chiqarishni maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilishga ko'maklashadi. Uchinchidan, to'liq tannarx ko'rsatkichi narx belgilashda, ayniqsa nazorat qilinadigan narxlarni belgilashda keng qo'llaniladi. Sotish bahosi « to'liq tannarx + mukofot» formulasi orqali aniqlanadigan shartnomalar keng tarqalgan. O'tgan

davrda to’liq tannarx usuli ishlab chiqarish quvvatlarining to’liq ishlashi va narx raqobatining yo’qligi sharoitidagi rejali iqtisodiyotda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda keng qo’llanilgan. Ammo, xozirgi kunda ishlab chiqarish quvvatlarining to’liq ishlatilishi mahsulotga bo’lgan talab bilan belgilanadi. Shu sababli boshqaruvchi oldida turgan asosiy vazifalardan biri ma’lum ishlab chiqarish hajmida mahsulot tannarxi qanchaga teng bo’lishini aniqlashdan iborat. To’liq tannarx usulini qo’llashda yuqoridagi savolga javobni faqat hisobot davri yakunida olish mumkin. Ammo boshqaruvchi kelgusidagi tannarx to’g’risidagi ma’lumotni assortimentni rejalashtirish vaqtidayoq bilishi lozim. Xarajatlar va ishlab chiqarish xajmi o’rtasida aloqaning yo’qligi to’liq tannarx bo’yicha kalkulyatsiyaning bosh kamchiligi hisoblanadi.

Yuqoridagidan tashqari to’liq tannarx usulining yana quyidagi kamchiliklarini ajratib ko’rsatish mumkin:

Birinchidan, egri xarajatlarni mahsulot turlariga taqsimoti bazalarini tanlash mezonlarining har doim ham asosli bo’lmasligi. Qo’llanilishi mumkin bo’lgan taqsimot bazalarining cheklangan va ulardan birini tanlash sub’ektiv xarakterga ega. Bu masala ayniqsa mahsulot tannarxi tarkibida to’g’ri materiallar va mehnat xarajatlarining ulushi katta bo’lgan zamonaviy yuqori texnologik kompaniyalar uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ko’pchilik ana’naviy sanoat tarmoqlarida egri xarajatlarning ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxidagi ulushi 50%gacha etishi mumkin. Masalan, qazib olish va metallurgiya sanoatida. Bo’linmalarga egri xarajatlarning taqsimlanishi bo’linma faoliyat natijalarini buzib ko’rsatishini quyidagi misoldan ko’rishimiz mumkin. Taqsimot bazasi sifatida eng ko’p qo’llaniladigan bo’linmaning sotish hajmini olamiz.

Ikkinchidan, egri xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulotga taqsimlanishi hisobiga foyda tayyor mahulotning ombordagi qodiqlarining o’zgarishiga bog’liq bo’lib qoladi. Nolikvid zaxiralarning yig’ilib qolishi sharoitida korxona hisob foydasini oshishiga ega bo’ladi.

To’liq tannarx va o’zgaruvchan tannarx usullari bo’yicha aniqlangan natijaning farqlanishi . Shu tariqa xulosa qilish mumkinki, to’liq tannarx usuli nazariy jihatdan

olib qaralganda asosli hisoblanadi, ammo korxona oldida turgan amaliy masalalarini echishda ancha noqulay hisoblanadi. Yuqorida tilga olingan kamchiliklarini o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar asosida taqsimlash asosida chetlab o'tish mumkin. Masalan, ushbu usul orqali zaxiralar qiymatiga faqat o'zgaruvchan xarajatlar kiritiladi, doimiy xarajatlar esa davr xarajatlariga o'tkaziladi. Bu foydani zahiralarni o'zgarishi ta'siridan butunlay xolos etadi. Ammo o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha tannarxni aniqlashning asosiy amaliy qimmati tez o'zgarib turadigan bozor muhitida boshqaruv qarorlarini qabul qilish va tahlil uchun keng imkoniyatlar lratadi. Ushbu usulning G'arbning boshqaruv hisobi tizimlarida qo'llanilishi bejiz emas. O'zgaruvchan va doimiy xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qo'llaydigan eng keng tarqalgan tahliliy instrumentlarga quyidagilar kiradi:

- «Xarajatlar-Xajm-Foyda» bog'lanishi tahlili;
- Marjinal daromad asosida narx shakllantirish;
- Muqobil variantni tanlash.

Foyda (To'liq tannarx usuli)

Foyda (O'zgaruvchan xarajatlari)

Davr oxiriga tayyor mahsulot qoldig'idagi ishlab chiqarish xarajatlari

Davr boshiga tayyor mahsulot qoldig'idagi ishlab chiqarish xarajatlari

Ishlab chiqarish xajmi to'g'risida qaror qabul qilish uchun rahbariyatga ushbu qarorning bahoga, tushum va foydag'i ta'sirini bilishi lozim. Mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlarni va belgilangan sotish xajmida umumiyligi doimiy xarajatlarni bilish korxonaning kutilayotgan foydasini hisoblash imkonini beradi. Bunday yondashuvning bo'lmasligi xarajatlarni boshqarishda salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Masalan, bir sotish tarmog'i rahbariyatida bunday informatsiyaning yo'q bo'lishi ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu tarmoq tarkibiga kiruvchi do'konlar xar bir hisobot davri oxirida foydani qayd etishardi. Ammo boshqaruvchi kompaniya tomonidan xarajatlar taqsimlangandan so'ng do'konlarning bir qismi doimo zarar bilan chiqar edi. Tarmoq rahbariyati zarar bilan chiqayotgan do'konlarni yopishga qaror qildi, ammo boshqaruvchi kompaniyaning xarajatlarining asosiy qismi doimiy xarajatlar ekanligini e'tiborga olmagan. Bunday qarorning natijasini

oldindan bilish qiyin emas, do'konlar yopilganidan so'ng bosh kompaniyaning doimiy xarajatlari qolgan do'konlar o'rtaida taqsimlandi va natijada ular ham zarar bilan hisobot davrini tugatishdi. Ta'riflangan «Xarajatlar-Xajm-Foyda» tahlili olingan tushumdan o'zgaruvchan xarajatlarni chegirish orqali aniqlanadigan marjinal daromad ko'rsatkichini hisoblash uslubiyoti bilan yaqin aloqada bo'ladi. Marjinal daromad ko'rsatkichi narx belgilashda keng qo'llaniladi. Marjinal daromad asosida qisqa muddatli narx belgilash bozorni qo'lga kiritish va ishlab chiqarilgan mahsulotning yangi birligidan tushum orqali barcha o'zgaruvchan xarajatlar va doimiy xarajatlarning bir qismini qoplash uchun qo'llaniladi. Zararsizlik nuqtasiga etgandan va barcha doimiy xarajatlar qoplangandan so'ng foydani qayd etish boshlanadi. Zamonaviy sharoitda korxonalar har doim ham 100% quvvatda ishlamaydi. Shu sababli qo'shimcha buyurtmalarni olish imkoniyatining marjinal daromad ko'rsatkichi asosida tahlil qilish korxonaga ishlab chiqarish dasturini optimal tuzishga yordam beradi. To'liq tannarx ko'rsatkichi nuqtai-nazaridan qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo'limgan xaridorlarning takliflari marjinal daromadning hisoblanishidan so'ng qabul qilinishi mumkin. Bunday qo'shimcha xarajatlar doimiy xarajatlarning bir qismini bo'lsada qoplash va natijada umumiyligi moliyaviy natijani yaxshilash imkonini beradi. O'zgaruvchan xarajatlar usulini mamlakatimizda qo'llashga to'siq bo'lib turgan narsa shuki, buxgalteriya hisobining rasmiy tizimi xali ham to'liq tannarx usuliga yo'naltirilgan. Bundan tashqari, boshqaruvin hisobini avtomatlashtirish buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan aloqada amalga oshirilmoqda. Chunki hamma ham bir ma'lumotni ham buxgalteriya hisobi, ham boshqaruvin hisobi axborotlar bazasiga kiritishni istamaydi. Natijada xarajatlarni to'g'ri va egri xarajatlarga bo'lish va to'liq tannarxni hisoblash ustun prinsip bo'lib qolaveradi. Ammo bu bilan o'zgaruvchan xarajatlar usulidan to'laligicha voz kechish shart emas. To'g'ri va egri xarajat moddalari ishlab chiqarish xajmiga nisbatan tasniflanadi va ularga tegishli belgi qo'yiladi. Masalan, ishlab chiqarishda band bo'lganlarga mehnat haqi to'lashda «Mehnat haqi uchun to'g'ri xarajatlar» modda doimiy xarajat sifatida tasniflanadi. Shu tartibda egri xarajatlar ham tasniflanib chiqiladi. Tasnif belgisini qo'llash orqali o'zgaruvchan xarajatlar miqdorini

avtomatik aniqlash va marjinal daromadni aniqlash imkonini beradi. Ushbu raqamlar ma'lumot uchun qabul qilinadi. Albatta bu ishlab chiqarilgan mahsulotni tannarxini aniqlashda o'zgaruvchan xarajatlar usulini qo'llash imkonini bermaydi, lekin yuqorida keltirilib o'tilgan moliyaviy taxlil yo'nalishlarini amalga oshirish imkonini beradi. Xulosa qilib aytish mumkinki, xar qanday tahlil ishonchli va operativ boshqaruv hisobotiga asoslanishi lozim. Ammo ko'p xollarda boshqaruv hisoboti va operativ byudjetlar faqat buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida tahlil qilinadi. Bu boshi berk ko'chaga kirib qolish bilan barobardir. Chunki buxgalteriya hisoboti mehnat haqi, qo'shilgan qiymat solig'i va sh.k. hisob-kitoblar sababli vaqt bo'yicha ancha kechga qoladi. Bir so'z bilan aytganda, korxonada boshqaruv hisobi to'liq amal qilishi uchun operativ va strukturaviy hisobot tizimini joriy qilish lozim.

«Xarajatlar» tushunchasi juda keng qamrovli bo'lgani bois, alohida ko'rib chiqishni talab etadi. Umuman olganda xarajatlar deyilganda bir tomondan biznesning mavjud bo'lishini shartlarini yaratadigan, ikkinchi tomondan esa foydani kamaytiradigan sabablar bilan bog'liq masalalar ko'z oldimizga keladi. Quyida xarajatlarning eng keng tarqalgan tasnifi keltirilgan:

Xarajatlarning turkumlanishi O'zbekistonda ishlab chiqarish buxgalteriya hisobini tashkil etish 1999 yil 5 fevralda va kiritilgan o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 15 oktyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi, hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom» ga (bundan buyon Nizom deb aytildi) asoslangan.

**P&L ga
munosabatiga
ko'ra:**

- 1. Sotilgan mahsulot
tannarxi**
- 2. Operatsion**
- 3. Molivaviy**

**Ishlab chiqarish
hajmiga
ko'ra:**
1. O'zgaruvchan
2. Doimiy
3. Aralash

**Ob'ektga
munosabatiga
ko'ra:**
1. To'g'ri
2. Egri

Xarajatlar

Qaror qabul qilish:
1. Relevant xarajatlar
**2. Amalga oshirilgan
xarajatlar**
**3. Imkoniyatlar
qiymati**

Servis xarajatlari:
1. To'g'ri materiallar
2. Materillar
**3. Uskuna va
texnologiyalar**
4. Ijara
5. Boshqa ustama

**Ishlab chiqarish
xarajatlari:**
1. To'g'ri materiallar
2. To'g'ri mehnat
3. Ustama xarajatlar

2-chizma : xarajatlarning tasniflanishi .

Bu Nizom buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'yicha amaldagi qonunchilikni inobatga olgan holda xo' alik sub'ektlari bo'lган (o'z faoliyatini bankda hisobkitob schetini ochib olib boradigan) yuridik va jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga qo'shiladigan xarajatlarni bir xil qilish maqsadida ishlab chiqilgan Buxgalteriya

1.2. Parrandachilik korxonalarida xarajatlar auditining nazariy asoslari

Har qanday korxona o'z faoliyatini yuritishda turli xil xarajatlarni amalga oshiradi. Shu jumladan parrandachilik korxonalarida faoliyatidan kelib chiqib amalga oshirayotgan xarajatlarini audit obyekti sifatida oladigan bo'lsak, parrandachilik korxonalarida amalga oshirilgan xarajatlarni amaldagi qonun qoidalarga muvofiq tarzda amalga oshirilganligini tekshirish uchun audit o'tkaziladi .

Bunda parrandachilik korxonalarining quyidagi xarajatlar guruhiга ajratib auditdan o'tkaziladi ;

- ❖ Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari
- ❖ Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari
- ❖ Umum ishlab chiqarish xarajatlari
- ❖ Davr xarajatlaari

Audit obyekti deb yuqoridagi guruhlarni olsak maqsadga muvofiq bo'ladi . Yuqoridagilardan kelib chiqgan holda xarajatlarni turlari bo'yicha audit qilish kelib chiqadi va har bir tur xarajat bo'yicha hisob to'g'ri yuritilganligi audit natijasida aniqlanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotlar tannarxini hisoblashni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishdan maqsad sodir bo'lgan xo' alik muomalalarini hisobga olish va soliqqa tortishda qo'llanilayotgan tartibning O'zbekiston Respublikasi me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

Tekshiruv jarayonida auditor quyidagi masalalarni hal etadi:

- ➊ ishlab chiqarish xarajatlari tasnifini nizom talablariga mosligini aniqlash;
- ➋ egri xarajatlarni taksimlanish usullarni maksadga muvofiqligini tasdiqlash;
- ➌ tayyor mahsulotni baholash bo'yicha usul asosli tanlab olinganligi va to'g'ri qo'llanilayotganini tasdiqlash;
- ➍ tayyor mahsulot to'liq kirim qilinayotganligini aniqlash;

➊ o'natilgan va sotilgan mahsulotlar hajmlarini tasdiqlash;

➋ o'natilgan va sotilgan mahsulotlar tannarxini tasdiqlash.

Ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha hisob yuritilishi holatini tekshirish bo'yicha ma'lumot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: ishlab chiqarish xarajatlari hisob qaydnomalar, tayyor mahsulotni omborda hisobga olish bo'yicha varaqalar, preyskurantlar, mahsulotni etkazib berish to'g'risida shartnomalar, schet-fakturalar, sotish bo'yicha daftarlar, tayyor mahsulotni berish to'g'risida yuk xatlari, xaridorlar ishonchnomalari, tushum kelib tushganligi to'g'risida dastlabki bank va kassa hujjatlari (to'lov talabnomalar, talabnoma-topshiriqnomalar, kirim kassa orderlari va boshqalar), 2010, 2810, 2910, 9010, 9110, 5010, 5110, 4010sonli va boshqa schetlar bo'yicha hisob registrlari (ro'yxatnomalar, jurnal-orderlar, mashinogrammalar), Bosh kitob, "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot" (2-sonli shakl) va boshqalar.

Ishlab chiqarish xarajatlari auditida foydalaniladigan me'yoriy xujjalalar ro'yxati

1. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun
2. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi
4. "Korxonalarda ichki audit xizmati to'g'risida"gi Nizom
5. «Maxsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xarajatlar tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi xaqida»gi Nizom
6. «Inventarizatsiya vaqtida aniqlangan mol-mulkning kamomadi va ortiqchasini buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish tartibi xaqida»gi Nizom
7. Auditorlik faoliyatining milliy standartlari
8. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari
9. Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish qoidalari va x.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobining to'g'rilagini va mahsulot, ish hamda xizmatlar tannarxi to'g'risidagi hisobotni tuzishning to'g'rilagini nazorat qilish uchun quyidagilarni tekshirish lozim: hisobot davridagi haqiqiy xarajatlarning ishlab chiqarish xarajatlari schyotlarida o'z vaqtida, to'liq va ishonarli aks ettirilishi; ishlab chiqarishga xarajat qilingan xom ashylar, materiallar, yoqilg'ilar, ehtiyoj qismlar va yoqilg'i-moylash materiallarini baholashning to'g'rili; belgilangan xarajat smetalari, lavozim maoshlari, tarif stavkalari, ishlab chiqarish xodimlarining mehnatiga haq to'lash va mukofotlash haqidagi Nizomga rioya qilish ustidan nazoratning ta'minlanganligi; noishlab chiqarish sarflari va yo'qotishlarning paydo bo'lish sabablari hamda hisobdan chiqarilishning asoslanganligi.

Asosiy xarajatlar, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlarining to'g'ri va asoslangan hamda me'yorlarga muvofiqligini tekshiriladi. Mahsulot (ish, xizmat) larning rejadagi va hisobot kalkulyatsiyasining to'g'rilagini xarajat moddalari bo'yicha tekshiriladi. Natijada reja va haqiqiy tannarx o'rtasidagi tafovutlarni moddalar bo'yicha tahlil qilinib, tafovutlar sababi aniqlanadi. Xom ashyo va materialarni sarflashning to'g'rili, baholar to'g'rilagini tekshirish metodlari, mahsulot (ish, xizmat) birligiga to'g'ri keladigan sarf me'yoriga rioya qilinishi tekshiriladi. Brak (yaroqsizlik) dan ko'rilgan yo'qotishlar va ishlab chiqarish xarajatlari schyotlarini yopishning to'g'rilagini tekshirish. Auditor shuni yaxshi bilishi zarurki, mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxi buxgalteriya hisobida oddiy faoliyat turlari bo'yicha hisobot davrida mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) va realizatsiya bilan bog'liq sarflar yig'indisi kabi aniqlanadi. Mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) xarajatlari to'langan vaqtidan qat'iy nazar (oldin yoki keyinchalik to'langan), qaysi hisobot davriga taalluqli bo'lsa, shu davr tannarxiga qo'shiladi. Auditor ushbu xo' alik muomalasini asossiz, ya'ni o'tgan yildagi mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxini sun'iy ravishda oshirgan va moliyaviy natijani hamda foyda solig'ini pasaytirgan deb topdi va tuzatish kiritishni tavsiya qildi. Shu bilan birga to'langan ijara haqi keyingi yil davomida umumiy summaning 1/12 qismi miqdorida har oyda

xarajatga hisobdan chiqarishi lozimligini tushuntirdi. O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunining 9moddasiga muvofiq korxonada sodir etilgan barcha xo' alik muomalalari amalga oshirilayotgan vaqtda yoki amalga oshirilib bo'lingandan so'ng tegishli dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtirilishi lozim. Xarajatlarni hujjatlashtirish tamoyili auditorning xarajatlarni asoslash uchun isbotlovchi hujjatlarning mavjudligi, hamda ushbu muomalalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishning to'g'rilingini tasdiqlash vazifasini belgilab beradi. Yuqorida nomi qayd qilingan, «Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom» ga muvofiq barcha xarajatlar quyidagicha guruhanadi:

Mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

- bevosa va bilvosita moddiy xarajatlar;
- bevosa va bilvosita mehnat xarajatlari;
- boshqa bevosa va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lган ustama xarajatlar.

Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmasdan, davr sarflari tarkibida hisobga olinib, asosiy faoliyatdan olingan foyda hisobidan qoplanadigan xarajatlar:

- sotish xarajatlari;
- boshqaruv xarajatlar (ma'muriy sarf-xarajatlar);
- boshqa muomala xarajatlari va zararlar.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning umumxo' alik faoliyatidan olingan foyda yoki ko'rilgan zararlarni hisoblab chiqarishda hisobga olinadigan, uning moliyaviy faoliyatiga doir xarajatlar:

- ✓ foizlar bo'yicha sarflar;
- ✓ xorijiy valyuta muomalalari bo'yicha salbiy kurs tafovutlari;
- ✓ qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash;
- ✓ moliyaviy faoliyatga doir boshqa xarajatlar.

1.3 “Samarqand Parranda” AJ faoliyati va umumiyl tavsifi

Samarqand Parranda, Samarqand viloyat adliya boshqarmasining 2005 yil 5-avgustdagagi 28-sonli qarori bilan qayta ro‘yhatga olingan Aksiyadorlik jamiyat shaklidagi „SAMARQAND-PARRANDA” Qo‘shma korxonasi Ustaviga qo‘shimcha-o‘zgartirishlar kiritilib, O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 apreldagi „Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi” hamda aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining 2016 yil 18 iyun kunidagi qaroriga muofiq holda tuzulgan.

Korxonaning to‘liq nomi : Aksiyadorlik jamiyat shaklidagi „Samarqand - Parranda” Qo‘shma korxonasi

- ❖ Ingliz tilida : „Samarqand - Parranda” Joint venture in the form of Joint Stock Company
- ❖ Rus tilida : Совместно предпиятни „Samarqand - Parranda” в форме Акционерного общества

Korxonaning joylashgan manzili :

O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand viloyati, Samarqand tumani, Yangiariq qishlog‘i, indeks 140332

Korxonaning elektron pochta manzili: samparranda@umail. Uz

Korxonaning rasmiy korporativ veb-sayti: samparranda.uz

Korxonalarning aksiyadorlari quydagilardan iborat:

Chet el investorlari:

- © Chexiya tamonidan
- © “VVSA INVEST spol s.r.o.” Masulyati cheklangan jamiyat
- © Birlashgan Arab Amirliklari tamonidan
- © “ZARAFSHON TRADING” firmasi
- © **O‘zbekiston tamonidan:**
- © “Tijorat masulyati cheklangan jamiyat”
- © Masulyati cheklangan jamiyat shaklidagi “AFROSIYOB-MEVA” O‘zbekiston – chexiya- Birlashgan Arab Amirliklari qo‘shma korxonalarini

Jismoniy shaxslar

Korxona tijorat tashkiloti bo‘lib, uning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasi axolisini ish bilan taminlash, ularni turli xil maxsulotlar va xizmatlarga bo‘lgan extiyojlarini to‘laroq qondirish, shuningdek moliyaviy xo‘jalik foaliyatdan foyda olishdan iboratdir.

Korxona ko‘ydagi foaliyat va xizmat turlarini amalga oshiradi:

- Parranda va jujalar etishtirish, ularni sotish
- Parranda go‘shti etishtirish, tuxum ishlab chiqarish va sotish
- Parranda go‘shti va tuxumini qayta ishlash va sotish
- Meva sabzavot maxsulotlarini yig‘ish, saqlashva qayta ishlash
- Qishloq xo‘jalik, chorvachilik, asalarichilik maxsulotlarini va dorivor usimliklarini ishlab-chiqarish, taylorlash, yig‘ish, qayta ishlash va sotish
- Ulgurji savdo
- Chakana savdo
- Va boshqa foaliyat turlari bilan shug‘ullanadi

Korxona Ustav fondining miqdori 893 342 000,00 (sakkiz yuz to‘qson uch million uch yuz qirq ikki ming) so‘m, yoki 838 132,80 (sakkiz yuz uttiz sakkiz ming bir yuz uttiz ikki, 80) AQSH dollarini tashkil qilib, har birining nominal qiymati 2000 (ikki ming) so‘m bo‘lgan 446 671 (to‘rt yuz qirq olti yuz etmis bir) dona oddiy egasi yozilgan aksiyalardan iborat.

Ishtirokchilar Ustav fondiga o‘z ulushlarini qo‘ydagi ko‘rinishda kiritiladi:

- ❖ Pul vositalari
- ❖ Har xil mol-mulk turlari(asbob-uskunalar, ko‘chmas mulk, avtotransport, xomashyo va boshqa tovar-moddiy boyliklar va b)
- ❖ Qimmatli qog‘ozlar

Boshqa mulkiy va nomulkiy huquqlar, shu jumladan kashfiyotlar va boshqa intelektual mulkchilikdan foydalanish huquqlari .

Korxona aksiyalari va aksiyadorlari haqida malumot

1-jadval.

| Aksiyador-larning Nomi | Aksiyador-lar soni | Ulushning miqdori (1 dona aksiyaning nominal qiymati 2000 so‘m) | | | | 1 AQSH dollarini kursi |
|---|--------------------|---|-----------------------|---------------|---------|------------------------|
| | | So‘mda | AQSH dollari | Foiz (%) | So‘m | Belgilangan kuni |
| X | 204550 | 4091000 00,00 | 372000,4 0 | 45,794 | 1099,73 | 28.05.2005 |
| „Tijorat” Masuliyati cheklangan jamiyat | 21 767 | 4353000 0,00 | 44 876,2 9 | 4,873 | 970 | 31.12.2002 |
| Jismoniy shaxslar | 68 448 | 1368960 00,00 | 141 129, 9 | 15,324 | 970 | 31.12.2002 |
| „VVSA Invest spol s.r.o”(CHexiya) | 38 563 | 7712600 0,00 | 79 511,3 4 | 8,633 | 970 | 31.12.2002 |
| „Zarafshon Trayding” kompaniya si (B.A.A) | 93 270 | 1865400 00,00 | 169623,4 5 | 25,376 | 1099,73 | 28.05.2005 |
| | 20075 | 4015000 0,00 | 30991,42 | | 1295,52 | 23.02.2008 |
| Jami | 446 671 | 8933420 00,00 | 838132,8 0 | 100,00 | | |

Korxonaning sof foydasi quyidagilardan tashkil topgan:

- ✓ Zaxira fondi
- ✓ Kuzatuv kengashini taqdirlash fondi
- ✓ Mexnat jamoasini taqdirlash fondi
- ✓ Aksiyadorlarning O‘mumiy yig‘ilishi tamonidan aniqlanadigan, Jamiaty foaliyati uchun zarur bo‘lgan jamiyatning Boshqaruv organi va taftish komissiyasi azolarini taqdirlash uchun fondlar tuzadi.

Zaxira fondi Ustav fordinig 15 (un besh) % miqdorda tuzuladi.

II-bob. Parrandachilik korxonalarida xarajatlar hisobining tashkil etish uslubiyoti

2.1 Parrandachilik korxonalarida asosiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobi

Xarajatlar boshqaruv hisobining asosiy ob'ekti hisoblanadi. Xarajatlar deganda, ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun (mahsulot ishlab chiqarish, tovar xaridi, xizmatlar) sarflangan resurslar qiymatining puldagi ifodasidir. Ushbu atama juda ko'p ma'noga ega bo'lib va turli xil vaziyatlarda turli xil tipdagi xarajatlar qo'llaniladi.

Xarajatlar tushunchasi tannarx tushunchasidan kengroqdir. Xarajatlar korxona o'z maqsadlariga erishish uchun va oldiga qo'ygan vazifalarni hal qilish uchun amalga oshirgan sarf va chiqimlarning puldagi ifodasidir. Tannarx esa mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish orqali mahsulot qiymatini yaratish bilan bog'liq xarajatlardir. Bunday xarajatlarni ishlab chiqarish xarajatlari ham deb atashadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining turlari, tarkibi, hisobga olinish tartibi respublikamizda Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldag'i 54- son qarori bilan tasdiqlangan «*Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy nptijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom*» bilan belgilangan.

Ushbu Nizomga muvofiq korxonalarning barcha ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi belgilari bo'yicha tasniflanadi.

- © Ishlab chiqarish jarayonidagi roliga qarab;
- © Tannarxga kiritilish usuliga qarab;
- © Ishlab chiqarish xajmiga nisbatan o'zgarishiga qarab;
- © Iqtisodiy mohiyatiga qarab.

Ishlab chiqarish jarayonidagi roliga qarab ishlab chiqarish xarajatlari asosiy ishlab chiqarish, yordamchi ishlab chiqarish, umum ishlab chiqarish xarajathlariga bo'linadi.

Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari deganda ishlab chiqarishning asosiy texnologik jarayonlarini bevosita olib boruvchi ishlab chiqarish sexlari xarajatlari tushuniladi. Bunday xarajatlarga asosiy sexlarning texnologik jarayonlarida mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarilishiga bevosita sarflangan xarajatlar kiradi³.

Korxonaning asosiy faoliyat turi hisoblangan mahsulot (ish, xizmat)lar, asosiy ishlab chiqarish xarajatlari to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotida amalga oshiriladi. Oldindan (ijara, abonent to‘lovi va h.k.) yoki keyingi davrlardagi (hisobdor summasining ortiqcha xarajatlari uchun to‘lovlar va boshqalar) - korxona xarajatlari mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga ularning to‘langan muddatidan qat’i nazar - qaysi davrga taalluqli bo‘lsa o‘sha hisobot davrida kiritiladi.

2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotining debeti bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan to‘g‘ri xarajatlar shuningdek, yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan egri xarajatlar va yaroqsiz mahsulot hisobiga yo‘qotishlar aks ettiriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan to‘g‘ri xarajatlar 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotiga ishlab chiqarish zaxiralari, mehnatga haq to‘lash bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar va boshqalarni hisobga oluvchi schyotlarning kreditidan hisobdan chiqariladi.

Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotining debitiga, 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotining kreditidan hisobdan chiqariladi.

³ Уразов К.Б. Бухгалтерия хисоби назарияси. Замонавий педагогик технологияларга асосланган кўргазмали маъруза матнлари тўплами. - СамИСИ, 2014. - 100 бет.

Asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan egri xarajatlar 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotiga 2510 "Umumiyl ishlab chiqarish xarajatlari" schyotidan hisobdan chiqariladi.

Yaroqsiz mahsulot hisobiga yo'qotishlar 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotiga 2610 "Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar" schyotidan hisobdan chiqariladi.

2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotining kreditida tugallangan mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlarni bajarishning haqiqiy tannarx summalar aks ettiriladi. Ushbu summalar 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotidan 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar", 9110 "Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi", 9130 "Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi" schyotlarining debetiga hisobdan chiqarilishi mumkin.

2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyoti bo'yicha oy oxiridagi qoldiq tugallanmagan ishlab chiqarishning tannarxini ko'rsatadi.

Analitik hisob xarajatlarning turlari va chiqarilayotgan mahsulotlarning turlari bo'yicha yuritiladi. Xarajatlarning yuzaga kelish joylari va boshqa belgilari bo'yicha guruhanishi shuningdek, kalkulyasion hisob alohida schyotlar tizimida amalga oshiriladi. Ushbu schyotlarning tarkibi va foydalanish uslubiyatini har bir korxona o'zining ishlab chiqarish faoliyati, tuzilishi, boshqarishni tashkil etish xususiyatlariga qarab belgilaydi. Agar xarajatlarning vujudga kelish joyi va boshqa belgilari bo'yicha guruhanishi hamda kalkulyasion hisob alohida schyotlar tizimida hisobga olinmasa, 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotining analitik hisobi ham korxonaning alohida bo'linmalari bo'yicha yuritiladi.

21-son BHMS ga muvofiq asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2000)ning bog‘lanishi quyidagicha⁴:

2- jadval

**Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2000)ning
bog‘lanishi**

| T/ r | Xo‘jalik muomalalarining mazmuni | Schyotlarning bog‘lanishi | |
|---------|--|--------------------------------------|---------------|
| | | Debet | Kredit |
| 1 | Bevosita mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko‘rsatish)da qatnashadigan asosiy vositalarning eskirishi | 2010 | 0211-0299 |
| 2 | Mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatishga taalluqli bo‘lgan nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi | 2010 | 0510-0590 |
| 3 | To‘g‘ri material xarajatlari mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatishga hisobdan chiqarildi | 2010 | 1010-1090 |
| 4 | Chorvachilik mahsulotini olish uchun hayvonlarni so‘yish (hayvonlar qiymati) | 2010 | 1110, 1120 |
| 5 | Materiallar qiymatidagi farq tegishli ulushlarda asosiy ishlab chiqarishga hisobdan chiqarildi | 2010 | 1610 |
| 6 | O‘zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlash uchun asosiy ishlab chiqarish sexlariga chiqarish | 2010 | 2110 |
| 7 | Yordamchi sexlarning xarajatlarini asosiy ishlab | 2010 | 2310 |

⁴ 21-son BHMS.Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo’llash bo‘yicha YO’RIQNOMA. O’zR AV da 2002 yil 23 oktabrda 1181-son bilan ro’yxatga olingan.

| | | | |
|----|---|------|--------------------|
| | chiqarishning mahsuloti va xizmatlari tannarxiga kiritish | | |
| 8 | Umumishlabchiqarish xarajatlarining asosiy ishlab chiqarish mahsuloti va xizmatlarining tannarxiga kiritilishi | 2010 | 2510 |
| 9 | Yaroqsiz mahsulotlar hisobiga yo‘qotishlar asosiy ishlab chiqarish mahsuloti va xizmatlari tannarxiga kiritildi | 2010 | 2610 |
| 10 | Ilgari kelgusi davr xarajatlari sifatida aks ettirilgan xarajatlarning tegishli ulushi mahsulot tannarxiga olib borildi | 2010 | 3110-3190 |
| 11 | Kirim qilingan tayyor mahsulotning ombordan sexlarga qayta ishlash va hokazo uchun qaytarilishi | 2010 | 2810 |
| 12 | Tovarlar qayta ishlashga berildi | 2010 | 2910-2990 |
| 13 | Ishlab chiqarish uchun bevosita sexlarga kelib tushadigan moddiy qiymatliklar va xizmatlar olindi | 2010 | 6010 |
| 14 | Qondirilmagan da’volar summasi asosiy ishlab chiqarish mahsulotlari, ish va xizmatlarining tannarxiga kiritildi | 2010 | 4860 |
| 15 | Asosiy ishlab chiqarishdagi sug‘urta xarajatlari | 2010 | 6510 |
| 16 | Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari bo‘yicha maqsadli davlat jamg‘armalariga ajratmalar | 2010 | 6520 |
| 17 | Asosiy ishlab chiqarish xodimlariga mehnat haqi to‘lash bo‘yicha summalar hisoblandi | 2010 | 6710 |
| 18 | Hisobdor shaxslar tomonidan amalga oshirilgan asosiy ishlab chiqarish xarajatlari | 2010 | 4220-4290, 6970 |
| 19 | Asosiy ishlab chiqarish sexlariga turli korxonalarga | 2010 | 6990 |

| | | | |
|----|---|---------------|---------------|
| | ular tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar uchun qarzlar | | |
| 20 | Ajratilgan bo‘linmalar, sho“ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining asosiy ishlab chiqarish ehtiyojlarga qilgan xarajatlari | 2010 | 6110, 6120 |
| 21 | Asosiy sexlarda aniqlangan tugallanmagan ishlab chiqarishning ortiqchalari kirim kilindi | 2010 | 9390 |
| 22 | Materiallarning asosiy ishlab chiqarishdan qaytarilishi; o‘zida ishlab chiqarilgan materiallar, shuningdek qaytariladigan chiqindilarning kirim qilinishi | 1010- 1090 | 2010 |
| 23 | Hayvonlarni o‘sirish va bo‘rdoqiga boqish bo‘yicha joriy xarajatlarning xayvonlar tannarxiga (o‘sish va ortgan vaznning) kiritilishi; hayvonlar naslining aks ettirilishi | 1110, 1120 | 2010 |
| 24 | Tugallanmagan mahsulotni qayta baholash: a) qiymatining oshirilishi b) qiymatining kamaytirilishi | 2010 3290 | 6230 2010 |
| 25 | O‘zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar operatsiyalararo omborlarga kirim qilindi (yarim tayyor mahsulot holida) | 2110 | 2010 |
| 26 | Asosiy ishlab chiqarishda aniqlangan to‘g‘rlanmaydigan yaroqsiz mahsulotdan yo‘qotishlar hisobdan chiqarildi | 2610 | 2010 |
| 27 | Mahsulotni xaqiqiy tannarx bo‘yicha ishlab chiqarish | 2810 | 2010 |
| 28 | Savdo va ta’minot korxonalarida o‘zida ishlab chiqargan tovarlarning (qayta ishlashdagi va xokazo) kirim qilinishi | 2910- 2990 | 2010 |
| 29 | Asosiy sexlarda bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmatlarning sotilishi; tugallangan va buyurtmachi | 9130 | 2010 |

| | | | |
|----|---|------|------|
| | tomonidan qabul qilingan ishlarning bosqichlari bo'yicha xarajatlar summasining hisobdan chiqarilishi | | |
| 30 | Boshqa chiqib ketgan (tekinga berish va boshqalar) mahsulot tannarxining hisobdan chiqarilishi | 9110 | 2010 |
| 31 | Tabiiy ofatlar, yong'in va shu kabilar natijasida tugallanmagan ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar hisobdan chiqarildi | 9720 | 2010 |
| 32 | Asosiy ishlab chiqarishda aniqlangan moddiy qiymatliklarning kamomadi | 5910 | 2010 |

2010 – schyotda aks ettirilgan ishlab chiqarish xarajatlarining analitik hisobi bo‘limlar (sexlar) bo'yicha, mahsulot turlari bo'yicha va xarajat moddalari bo'yicha hisob siyosatida belgilangan tartibda olib boriladi.

“SAMARQAND-PARRANDA” AJ QK da 2014 yilda davr xarajatlari quyidagicha ko’rinishda bo’lgan.



1-diagramma. 2014 yil bo'yicha davr xarajatlarining hajmi

**“SAMARQAND-PARRANDA” AJ QK ning 2014 yil bo'yicha davr
xarajatlarining hajmi**

| Davr xarajatlari 100% | |
|---|-----------|
| Sotish xarajatlari 10% | 109699000 |
| Mamuriy xarajatlar 23% | 264696000 |
| Boshqa operatsion xarajatlar 67% | 777652000 |

**2.2 Parrandachilik korxonalarida yordamchi va umumiy ishlab chiqarish
xarajatlari hisobi**

Korxonaning asosiy ishlab chiqarishiga yoki asosiy faoliyatiga yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi hisoblangan ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotida amalga oshiriladi.

Ushbu schyot quyidagilarni ta'minlaydigan, ish-lab chiqarish xarajatlarini hisobga olish uchun qo'llaniladi:

- a) energiyaning turli xillari (elektr energiyasi, bug' va boshqalar) bilan xizmat ko'rsatish;
- b) transport xizmatini ko'rsatish;
- v) asosiy vositalarni ta'mirlash;
- g) asboblar, to'rtburchak muhrlar, ehtiyoj qismlar, qurilish detallari va konstruksiyalarini tayyorlash yoki qurilish materillarini boyitish (asosan qurilish korxonalarida);
- d) tosh, shag'al, qum va boshqa ruda bo'limgan materiallarni qazib olish;
- e) yog'och materiallarini tayyorlash va taxta qilish;
- j) qishloq xo'jalik mahsulotlarini tuzlash, quritish va konserva qilish (asosan, savdo korxonalarida).

Bundan tashqari ushbu schyotlarda korxona balansida turuvchi ilmiy tekshirish va tajriba konstruktorlik bo‘linmalarining xarajatlari aks ettirilishi mumkin.

2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotining debeti bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmat ko‘rsatish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan to‘g‘ri xarajatlar shuningdek, yordamchi ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan egri xarajatlar va yaroqsiz mahsulot hisobiga yo‘qotishlar aks ettiriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatish bilan bevosita bog‘liq to‘g‘ri xarajatlar 2310 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotiga, ishlab chiqarish zaxiralari, mehnat haqi to‘lash bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar, asosiy vositalarga eskirish va nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash va boshqalarni hisobga oluvchi schyotlarning kreditidan hisobdan chiqariladi.

Yordamchi ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan egri xarajatlar 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotiga 2510 "Umumishlab chiqarish xarajatlari" schyotidan hisobdan chiqariladi. Yordamchi ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlar ayrim hollarda bevosita 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotida hisobga olinishi mumkin.

Yaroqsiz mahsulot hisobiga yo‘qotishlar 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotiga 2610 "Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar" schyotidan hisobdan chiqariladi.

2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotining kreditida tugallangan mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatish haqiqiy tannarxining summalarini aks ettiriladi. Ushbu summalar 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotining kreditidan 2010 "Asosiy ishlab chiqarish", 2510 "Umumishlab chiqarish xarajatlari", 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar", 9130 "Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi", 9420 "Ma’muriy xarajatlar" schyotlariga va boshqa schyotlar bilan bog‘langan holda hisobdan chiqariladi.

2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyoti bo‘yicha analitik hisob xarajat elementlari va moddalarini bo‘yicha va mahsulot turlari bo‘yicha yuritiladi.

2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyoti bo'yicha oy oxiridagi qoldiq tugallanmagan ishlab chiqarishning tannarxini ko'rsatadi.

2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyoti bo'yicha oy oxiridagi qoldiq tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini ko'rsatadi.

Yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2300)ning bog'lanishi quydagicha⁵:

4-jadval

Yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2300)ning bog'lanishi.

| T/ r | Xo'jalik muomalalarining mazmuni | Schyotlarning bog'lanishi | |
|---------|--|--------------------------------------|---------------|
| | | Debet | Kredit |
| 1 | Yordamchi ishlab chiqarish sexlarida foydalilanilayotgan asosiy vositalarning eskirishi | 2310 | 0211- 0299 |
| 2 | Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlariga taalluqli nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblandi | 2310 | 0510- 0590 |
| 3 | Yordamchi ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun materiallar sarflandi | 2310 | 1010- 1090 |
| 4 | Mahsulot olish uchun hayvonlarning so'yilishi | 2310 | 1110, 1120 |
| 5 | Tugallanmagan mahsulotni qayta baholash a) qiymatining oshirilishi b) qiymatining kamaytirilishi | 2310 3290 | 6230 2310 |
| 6 | Materiallar qiymatidagi farqlarni hisoblangan ulushlarda yordamchi ishlab chiqarish schyotlariga | 2310 | 1610 |

⁵ 21-sون BHMS.Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha YO'RIQNOMA. O'zR AV da 2002 yil 23 oktabrda 1181-son bilan ro'yxatga olingan.

| | | | |
|----|---|------|--------------------------------|
| | hisobdan chiqarish | | |
| 7 | O‘zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarning yordamchi ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun sarflanishi | 2310 | 2110 |
| 8 | Umumishlabchiqarish xarajatlarining tegishli ulushi yordamchi ishlab chiqarish mahsulotlari, ish va xizmatlari tannarxiga kiritilishi | 2310 | 2510 |
| 9 | Yordamchi ishlab chiqarish mahsulotlarini tayyorlashdagi yaroqsiz mahsulotdan ko‘rilgan yo‘qotishlar ularning tannarxiga kiritilishi | 2310 | 2610 |
| 10 | Kelgusi davrlar xarajatlarining ulushi yordamchi ishlab chiqarish mahsulotlari, ish va xizmatlari tannarxiga kiritildi | 2310 | 3110- 3190 3210- 3290 |
| 11 | Asosiy sexlarning mahsulotlari yordamchi ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun ishlatildi | 2310 | 2810 |
| 12 | Mol etkazib beruvchilardan yordamchi ishlab chiqarishga moddiy qiymatliklar va xizmatlar (suv, bug‘, energiya va xokazo) kelib tushdi | 2310 | 6010, 6990 |
| 13 | Qondirilmagan da’volar summasining yordamchi sexlarga tegishli bo‘lgan qismi ularning mahsuloti, ish va xizmatlari tannarxiga hisobdan chikarildi | 2310 | 4860 |
| 14 | Yordamchi ishlab chiqarishdagi sug‘urta xarajatlari | 2310 | 6510 |
| 15 | Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari bo‘yicha maqsadli davlat jamg‘armalariga ajratmalar | 2310 | 6520 |
| 16 | Yordamchi ishlab chiqarish xodimlariga mehnat haqi to‘lash bo‘yicha summalarining hisoblanishi | 2310 | 6710 |
| 17 | Yordamchi ishlab chiqarishga ko‘rsatilgan xizmatlari bo‘yicha turli korxonalarga bo‘lgan | 2310 | 6990 |

| | | | |
|----|---|---------------|---------------|
| | qarzlar | | |
| 18 | Olingen summadan ortiqcha xarajat qilganliklari uchun hisobdor shaxslarga bo‘lgan qarzlar | 2310 | 6970 |
| 19 | Ajratilgan bo‘linmalar, sho“ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarning yordamchi ishlab chiqarish sexlariga ko‘rsatgan xizmatlari | 2310 | 6110, 6120 |
| 20 | Yordamchi ishlab chiqarishdagi tugallanmagan ishlab chiqarishning ortiqchasi kirim qilindi | 2310 | 9390 |
| 21 | Yordamchi ishlab chiqarish tomonidan o‘rnataladigan asbob uskunalarini xarid qilishda qilingan xarajatlari asbob uskunalar qiymatiga qo‘sildi | 0710- 0720 | 2310 |
| 22 | Kapital qo‘yilmalarda amalga oshirilgan yordamchi sexlarning xarajatlari va xizmatlari hisobdan chiqarildi | 0810- 0890 | 2310 |
| 23 | Ilgari yordamchi ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun hisobdan chiqarilgan materiallarning qaytarilishi | 1010- 1090 | 2310 |
| 24 | Yordamchi ishlab chiqarishda ishlab chiqarilgan ehtiyyot qismlar kirim qilindi | 1040 | 2310 |
| 25 | Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining o‘stirishdagi va boquvdagi xayvonlar tannarxiga kiritilishi | 1110, 1120 | 2310 |
| 26 | Materiallarni tayyorlash va xarid qilishda yordamchi ishlab chiqarishning ko‘rsatgan xizmatlari va xarajatlari | 1510 | 2310 |
| 27 | Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va xizmatlari o‘zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarining tannarxiga kiritildi | 2110 | 2310 |
| 28 | Yroqsiz mahsulotlarni tuzatish bo‘yicha yordamchi | 2610 | 2310 |

| | | | |
|----|--|---------------|--------------|
| | ishlab chiqarish xarajatlari | | |
| 29 | Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarga o‘tkazilishi | 2710 | 2310 |
| 30 | Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va xizmatlarining (mavsumiy tarmoqlarda) kelgusi davr xarajatlariga olib borilishi | 3190- 3290 | 2310 |
| 31 | Yordamchi ishlab chiqarishda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar kirim qilindi | 2810 | 2310 |
| 32 | Yordamchi ishlab chiqarishdagi mahsulotlarning tovar sifatida kirim qilinishi (savdo korxonalari va shu kabilarda ushbu schet qo‘llanilganda) | 2910 | 2310 |
| 33 | Mahsulotlarni sotish va etkazib berishda yordamchi ishlab chiqarishning ko‘rsatgan xizmatlari hisobdan chiqarildi | 9410 | 2310 |
| 34 | Yordamchi ishlab chiqarishning mahsulotlari va bajarilgan ishlari, ko‘rsatgan xizmatlarining haqiqiy tannarxini hisobdan chiqarish | 9110, 9130 | 2310 |
| 35 | Yordamchi ishlab chiqarishning sotish va turli chiqib ketishidagi xarajatlarining hisobdan chiqarilishi: asosiy vositalar; nomoddiy aktivlar | 9210 9220 | 2310 2310 |
| 36 | Boshqa korxonalarga yordamchi ishlab chiqarishning investitsiya tariqasida mahsulotlari berildi va xizmalari ko‘rsatildi | 9110, 9130 | 2310 |
| 37 | Ajratilgan bo‘linmalarga yordamchi ishlab chiqarishning xarajatlari hisobdan chiqarildi yoki mahsulot berildi | 4110 | 2310 |
| 38 | Tabiiy ofat, yong‘in va shu kabilar natijasida | 9720 | 2310 |

| | | | |
|----|--|------|------|
| | ko‘rilgan yordamchi sexlarning zararlari hisobdan chiqarildi | | |
| 39 | Yordamchi ishlab chiqarishdagi aniqlangan moddiy qiymatliklarning kamomadi va buzilishlari | 5910 | 2310 |
| 40 | Qaytariladigan va ko‘p marta ishlatiladigan idishlar bo‘yicha xarajatlar va yo‘qotishlar | 9430 | 2310 |

Korxonaning umumishlab chiqarish xarajatlari to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish 2510 "Umumishlab chiqarish xarajatlari" schyotida amalga oshiriladi.

Ushbu schyotda umumishlab chiqarish xarakteriga ega bo‘lgan xarajatlar aks ettiriladi, jumladan:


- a) mashina va uskunalarini saqlash va ulardan foydalanish bo‘yicha;
- b) ishlab chiqarishga taalluqli bo‘lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiya ajratmalari bo‘yicha;
- v) ishlab chiqarishga taalluqli bo‘lgan asosiy vositalarni ta’mirlash xarajatlari;
- g) ishlab chiqarishdagi mol-mulkning sug‘urta xarajatlari;
- d) ishlab chiqarish binolarini isitish, yoritish va saqlash xarajatlari;
- e) ishlab chiqarishda foydalaniladigan ishlab chiqarish binolari, mashina va uskunalar, boshqa ijaraga olingan vositalar uchun ijara to‘lovleri;
- j) ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatishda band bo‘lgan ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi;
- z) ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar

Umumishlab chiqarish xarajatlari umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlarning debetida ishlab chiqarish zaxiralari, xodimlar bilan mehnat haqi bo‘yicha hisob-kitoblar va boshqalarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlarda hisobga olingan xarajatlar 2010 "Asosiy ishlab chiqarish", 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotlarining debetiga hisobdan chiqariladi.

Umumishlab chiqarish xarajatlarini alohida hisob ob'ektlari orasida taqsimlash tartibi korxonaning hisob siyosati orqali aniqlanadi.

Umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar bo'yicha analitik hisob korxonaning alohida bo'linmalari va xarajatlar moddalari bo'yicha yuritiladi.

“SAMARQAND-PARRANDA” AJ QK da 2015-2017 yilda moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlari quyidagicha ko'rinishda bo'lgan.



2-diagramma. Korxonaning 2015-2017 yillarda moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlari

III-bob. Parrandachilik korxonalarida xarajatlar auditini tashkiliy va metadalogik jihatlari

3.1 Parrandachilik korxonalarida xarajatlar auditining manbalari va audit o'tkazish ketma-ketligi

Parrandachilik korxonalarida xarajatlar auditini o'tkazishda audit qilish uchun manba bo'lib korxonaning quyidagi xujjatlari hisoblanadi .

- Korxonaning moliyaviy hisobotlari
- Xarajatlarni hisobi yuritiladigan hisob registrlari
- Xarajatlar schotlarini analistik va sintetik hisobi
- Schyot-fakturalar
- Nakladnoylar va boshqa xarajatlarga aloqador boshlang'ich hujjatlar

Audit qilish jarayonida boshlang'ich hujjatlar schot fakturalar yoppasiga tekshiriladi .

Parrandachilik korxonalarida xarajatlar auditini rejalashtirish jarayoni audit rejasi, audit dasturi va vaqt byudjeti kabi audit ishchi qog'ozlarini ishlab chiqish bilan yakunlanadi. Bu ishchi qog'ozlar ikki maqsadga xizmat qiladi:

- 1) auditorning belgilangan standartga asosan ishlayotganligini asoslash;
- 2) audit tekshiruvida qatnashayotgan xodimlaming ishini rejalashtirish va nazorat qilish.

Audit rejasi - mijoz faoliyat tarmog'i va audit strategiyasi yuzasidan auditoming umumiy ma'lumotidir. „Auditni rejalashtirish” deb nomlangan № 3 AFMSga asosan audit rejasida auditorlik tashkiloti auditni o'tkazish muddatlari, hisobot va xulosasinini tuzishni nazarda tutishi shart. Audit rejasida, odatda, quyidagilar to'g'risida batafsil ma'lumot keltirilgan bo'ladi:

- 1) mijoz, xaqida umumiy ma'lumot — uning tarkibiy tuzilishi, faohyat tarmog'i;
- 2) auditning maqsadi (aksiyadorlar taklifi bilan o'tkaziladigan audit, maxsus maqsadlami ko'zlagan audit va boshqalar);

- 3) audit xizmatiga qo'shimcha ravishda boshqa turdag'i xizmatlar (sohq, konsalting) ham ko'rsatilishi kutilayotgan bo'lsa, ulaming turi va ko'lami;
- 4) audit tekshiruvini o'tkazish uchun zaniriy vaql hajmi;
- 5) mijoz xodimlari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar;
- 6) audit tekshiruvida qatnashadigan xodimlarga nisbatan talablar;
- 7) audit riski va muhimlik darajasi bo'yicha ma'lumot.

Parrandachilik korxonalarida audit rejasi quyidagi ko'rinishida bo'ladi va audit tekshiruvini boshlashdan oldin ishlab chiqiladi. Ammo tekshiruv jarayonida,

- ❖ Audit rejasi
- ❖ Auditning umumiyligi
- ❖ Tekshiriladigan tashkilot
- ❖ Audit davri kishi soatlar miqdorida
- ❖ Auditorlik guruhining rahbari
- ❖ Auditorlik guruhining tarkibi
- ❖ Rejalshtirilgan audit neski
- ❖ Rejalshtirilgan jiddiy lik darajasi
- ❖ Rejalshtirilgan ishlar turi o'tkazish davri
- ❖ Bajaruvchi
- ❖ Eslatma
- ❖ Mijoz faoliyati bilan tanishish
- ❖ Ichki nazorat tizimini baholash
- ❖ Audit dalillari
- ❖ Jiddiy lik va risk darajasini aniqlash
- ❖ Auditorlik tanlash
- ❖ Audit dasturi
- ❖ Auditni bevosita o'tkazish jarayoni va h.k.

Auditorlik guruhi rahbari , auditorlik tashkiloti rahbari kutilmagan vaziyatlarning yuzaga kelishi yoki ichki nazorat tizimining haqiqiy holati ma'lum bo'lganda, audit rejasiga zaruriy o'zgartirishlar kiritilishi lozim. "Auditni rejalshtiiish" deb nomlangan № 3 AFMSning 31 bandiga ko'ra andit dastnri - audit

rejasini rivojlantirish hisoblanadi va audit rejasini amalda ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan auditorlik amallar mazmunining batafsil ro'yxatini o'z, ichiga oladi. Audit dasturi moliyaviy hisobotning har bir elementini tekshirish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni va buning uchun zaruruviy vaqt hajmini belgilagan holda, butun audit tekshiruvining batafsil loyihasini ifodalydi. Tekshiruvning har bir bosqichi o'z yakuniga yetgach, ish yakunlangan sana shu ishni nihoyasiga yetkazgan auditorning ismi sharifi va haqiqatda ketgan vaqt audit dasturida ko'rsatilishi lozim. Shunday qilib, audit dasturi audit rejasining yanada batafsil ko'rinishi bo'lgan holda, tekshiruvni rejalahtirish va uni nazorat qilishi uchun juda samarali vosita hisoblanadi. Audit dasturi tekshiruvni o'tkazish uchun kerakli xodimlaming zaruriy sonini ko'rsatadi va nazoratchilarga tekshiruvning har bir bosqichini nazorat qilish va yo'naltirishga xizmat qiladi. Audit dasturining umumiy tuzilishi quyidagi ko'rinishida bo'ladi.

Dasturga audit tekshiruvi yuzasidan batafsil yo'riqnomalarni kiritish tekshiruvning zaruriy bosqichlari e'tibordan chetda qolib ketishining oldini oladi. Batafsil yozma yo'riqnomalaming keltirilishi nisbatan tajribasiz bo'lgan auditorlarga, katta auditorlaming ortiqcha yordamisiz ham o'z ishini nihoyasiga yetkazishiga yordam beradi. O'z navbatida, katta auditorlar ham asosiy e'tibomi yuqori darajadagi tahliliy qobiliyat va chuqr mulohaza talab etuvchi bosqichlarga qaratishlariga imkon yuzaga keladi.

Audit rejasi tekshiruvning yakuniy maqsadini ifodalaydi. Audit dasturi esa shu maqsadlarga yetish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan bosqichlami ko'rsatib beradi.

Har bir audit tekshiruvi jarayonida, vaziyatdan kelib chiqib, o'ziga xos muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu vaziyatda tekshiruvga javobgar shaxsning muhim vazifasi, ayni shu vaziyatga mos keluvchi audit protseduralarini ishlab chiqishdan iborat. Audit tekshiruvini boshlashdan oldin tuzilgan audit dasturi faqatgina dastlabki ko'rinishdagi dastur hisoblanadi. Mijoz ichki nazorat tizimining haqiqiy holati va boshqa bir qator vaziyatlar ma'lum bo'lgan holda, bu dasturga zaruriy o'zgartirishlar kiritilishi lozim bo'ladi. Sifatsiz ichki nazorat tizimi

sabab ishonchsiz buxgalteriya ma'lumotlariga yoki ichki audit shtabiga ega bo'lмаган корхонада, bunday xususiyatlarga ega korxonaga nisbatan, ko'проq hajmdagi tekshiruvlar o'tkaziladi va u quyidagicha tartibda bo'ladi:

- ▣ Auditning umumiy dasturi
- ▣ Tekshiriladigan tashkilot
- ▣ Audit davri
- ▣ Kishi - soatlar miqdori
- ▣ Audit guruhi rahbari
- ▣ Audit guruhi tarkibi
- ▣ Audit riski
- ▣ Rejalashtirilgan jiddiylik darajasi

Korxonadagi buxgalteriya hisobi, ichki audit tizimi va moliyaviy hisobotlarning holatini tekshirish:

Tekshiriladigan obyektlar :

1. Ta'sis hujjatlarining mavjudligi va ustav kapitaliga doir balans ma'lumotlarining haqqoniyligi
2. Buxgalleriya hisobi registrlari, oborot saldo balanslarini tanlab tekshirish
3. Mulklar debitor va kreditor qarzlar. so'm va valyuta mablag'larining inventarizatsiya ma'lumotlari
4. Ichki auditning tashkil etilishi va h.k.

Auditorlik tashkiloti rahbari o'tkazilishi lozim. Ba'zan korxonaning biror tarmog'iga nisbatan kuchli, qaysidir tarmog'i uchun esa sifatsiz ichki nazorat tizimi o'matilgan bo'ladi. Ushbu vaziyatda, ichki nazoral tizimi talab darajasida bo'lган sohada audit teksliinivining hajmi kamaytirilishi, aksincha, sifatsiz ichki nazorat tizimi mavjud bo'lган tarmoqda uiiing hajmi ko'paytirilishi lozim. Korxonalarda ichki nazorat tizimi sifatining turli darajadaligi, qo'llanilgan buxgalteriya uslublarining har xilligi va aynan shu korxonaga xos bo'lган xususiyatdan kelib

chiqib audit dasfurining tuzilishi o'zgarib boraveradi. Shu sabab, audit dasturi, audit xulosasidan farqli o'laroq, yagona standart shaklga ega emas.

Ammo, audit dasturi tekshiruvni mantiqiy ketma-ket lik asosida olib borish imkonini beradi. Ammo bu dastur audit xodimlarini yagona qolipga solib qo'yishi kerak emas. Har bir xodim dastur chegarasidan chetlanmagan holda o'z mulohazasiga tayanib ish ko'rishi kerak. Audit dasturi bilan chegaralanmagan holda, xodimlar odatiy harakterga ega bo'lman, shubhali har qanday operatsiyalami batafsil o'rganib chiqishlari zarur. Auditorlik firmalari, odatda, xizmat haqini vaqtbay asosda olishlari sabab, tekshiruv uchun sarflangan vaqtning doimiy hisobi yuritilishi lozim. Vaqt budgeti — audit tekshiruvining har bir bosqichida qatnashayotgan, tajribasiga asosan guruhlarga ajratilgan auditorlaming sarflagan vaqtini auditorlik firmasi tomonidan belgilangan tarif stavkasiga ko'paytirish asosida ishlab chiqiladi. Vaqt budgeti faqatgina xizmat haqi summasini belgilash uchun xizmat qilmay menejer yoki katta auditor tomonidan alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan nuqtalami ko'rsatadi va tekshiruv belgilangan maromda borayotganini kuzatish imkonini beradi.

Audit tekshiruvini imkon darajasida oldindan belgilangan vaqt ichida yakunlash lozim. Shu sabab, har bir xodim tekshiruvni, o'zi uchun ajratilgan vaqtini aniq bilgan holda, olib borishi kerak. Biror muammo, murakkabliklar yuzaga kelgan holda, ushbu vaziyat yuzasidan xodim katta auditorga zudlik bilan xabar berishi, buning natijasida vaqtning behuda sarflanishing oldini olishi kerak.

Audit tekshiruvi avvalgi yillarda ham o'tkazilgan taqdirda, joriy yil uchun vaqt byudjetini tuzish oson kechadi. Ba'zan, mijoz buxgalleriya yozuvlarining sifatsiz ekanligi aniqlangan, yoki boshqa kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelgan holda, vaqt budgetida keltirilgan muddatda tekshiruvni yakunlashning imkonini bo'lmay qolaidi. Ammo vaqt budgetidan chiqmaslik tekshiruvning sifatiga ta'sir etmasligi lozim. Ya'ni belgilangan muddatda tekshiruvni yakunlash maqsadida tekshiruv yuzaki o'tkazilmasligi kerak.

Samarqand Parranda korxonasini 2014-yil 1-yanvaridan 31-dekabrigacha bo’lgan davr uchun moliyaviy hisoboti auditidan xarajatlar auditini oladigan bo’lsak:

Auditorlik tekshiruvini o’tkazish uchun Javlon audit servis auditorlik tashkiloti bilan Samarqand-Parranda qo’shma korxonasi o’rtasidagi 2015-yil 18- fevraldagi shartnomaga asosan o’tkazildi .

5-jadval

| Xarajat turlari | Xisobot bo‘yicha | Audit natijasi bo‘yicha | Ko‘payganligi | Kamayganligi |
|----------------------------|------------------|-------------------------|---------------|--------------|
| Sotilgan maxsulot tannarxi | 26667460 | 26667460 | 0 | 0 |
| Sotish xarajati | 109699 | 109699 | 0 | 0 |
| Boshqaruv xarajati | 264696 | 264696 | 0 | 0 |
| Boshqa operatsion xarajat | 777652 | 777652 | 0 | 0 |
| Foiz kurinishdagi xarajat | 30318 | 30318 | 0 | 0 |
| Salbiy kurs farqi | 999683 | 999683 | 0 | 0 |
| Soliqlar va | 32171 | 32171 | 0 | 0 |

| | | | | |
|-----------|----------|----------|---|---|
| to‘lovlar | | | | |
| Jami | 28881679 | 28881679 | 0 | 0 |

Parrandachilik korxonalarida xarajat korxona uchun muhim ko’rsatkich bo’lganligi bois u haqidagi axborotlarning realligi ham juda muhimdir. Bu ko’rsatkichlarning realligini audit aniqlab beradi. Korxonalarda audit to’rt bosqichda tashkil qilinadi.

Birinchi bosqichda quyidagilar amalga oshiriladi. Buni quyidagi chizmadan ko’rshimiz mumkin.

Auditorlik tekshiruvining birinchi bosqichida amalga oshiriladigan ishlar


- *audit o’tqazuvchi sub’ektning yozma buyurtmasi qabul qilinadi*
- *va hisobotining dastlabki holati o’rganiladi, auditning ob’ektlari, ish hajmi, auditorlik xatarining darajasi audit o’tqazuvchi sub’ektga audit o’tqazishga auditor yuborilib, audit o’tqazuvchi sub’ekt, uning hisob belgilanadi*
- *audit o’tqazuvchi sub’ekt nomiga audit o’tqazish majburiyatini olish to’g’risida rozilik xati tayyorlanadi, ushbu xatda audit o’tqazish bo’yicha shartlar, jumladan auditorlik xatari daraiasi. ko’rsatiladi*
- *audit o’tqazish bo’yicha shartlar o’zaro kelishilgandan so’ng audit o’tqazish to’g’risida shartnomasi tuziladi*
- *auditning dasturi tuziladi va uni o’tqazish grafigi belgilanadi*
- *auditorlar o’rtasida funksional majburiyatlar o’zaro taqsimlanadi, ularga yordamchilar belgilanadi*

1-rasm. Auditorlik tekshiruvining birinchi bosqichida amalga oshiriladigan ishlari.

Auditorlik tekshiruvini ikkinchi bosqichida tasdiqlangan dasturga muvofiq audit ob'ektlari tanlangan usullarda tekshirishdan o'tqaziladi. Xarajatlarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazayotganda quyidagilarga ahamiyat qaratiladi.

- Korxonaning hisob siyosati bilan tanishish;
- Moliyaviy hisobotning birinchi va ikkinchi shakllarini tegishli satrlarini tekshirish;
- Bosh kitobni tegishli schyotlar bo'yicha tekshirish;
- Tegishli hisob registrlarini tekshirish;
- Berilgan buxgalteriya yozuvlarini 21-sod BHMSga mosligini tekshirish;
- Berilgan buxgalteriya yozuvining birlamchi asosini mavjudligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirish.

Auditorlik tekshiruvining uchunchi bosqichida amalga oshiriladigan ishlar



2-rasm. Auditorlik tekshiruvining uchunchi bosqichida amalga oshiriladigan ishlar.

Auditorlik tekshiruvining to'rtinchi bosqichida auditorlik tekshiruvi natijalari muhokama etiladi, aniqlangan chetlanishlar bo'yicha tuzatishlar, qayta hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Tuzatilgan hisobot bo'yicha auditorlik xulosasi beriladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari guruhi iqtisodiy mazmuniga ko'ra mahsulot (ish,xizmat)lar tannarxining tarkibini tashkil etuvchi quyidagi elementlarga bo'linadi:

1. Ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqindilar qiymati chegirilib tashlangan holda);
2. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnat haqi xarajatlari;
3. Ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug'urta ajratmalari;
4. Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar eskirishi;
5. Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Shuning uchun auditor har bir xarajat elementi tarkibining «Nizom»ga muvofiqligiga ishonch hosil qilishi lozim. Ishlab chiqarish moddiy xarajatlari elementi tarkibiga ishlab chiqariladigan mahsulotning asosini tashkil etuvchi yoki mahsulotni tayyorlash (ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish)da zarur tarkibiy qism hisoblangan, chetdan sotib olingan xom-ashyo va materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar, ish va xizmatlar hamda Nizomda belgilangan boshqa xarajatlar kiradi. Auditor qaytarib olinadigan chiqindilar qiymati va idish hamda o'rash materiallari qiymati ularni sotish, foydalanish yoki omborga kirim qilish mumkin bo'lgan narxda baholanib, mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan chegirib tashlanganligini aniqlashi zarur. Shuningdek, mazkur element bo'yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati ularni sotib olish narxidan, shu jumladan qo'shimcha narx(ustama)dan, ta'minlovchi, tashqi iqtisodiy tashkilotlarga to'lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymatidan, shu jumladan brokerlik xizmatlari bilan birga, bojlar va yig'implardan, yuklash-tushirish hamda tashishga haq to'lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va etkazib berishga haq to'lashdan kelib chiqib shakllanishini ham nazarda tutishi zarur. Bulardan tashqari auditor mahsulot(ish, xizmat)lar tannarxiga olib

borilgan moddiy resurslarni baholashning to'g'rilagini ham tekshirishi kerak. №4-«Tovar moddiy zahiralar»nomli BHMSga muvofiq har bir xo' alik yurituvchi sub'ekt materiallarni baholash usullaridan (FIFO, AVECO)birini tanlaydi va hisob yuritish siyosatida aks ettiradi. Auditor tomonidan hisob siyosatiga mos ravishda material xarajatlari tannarxga olib borilishini ham tekshirish lozim.

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnat haqi xarajatlarining tarkibi «Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom»da batafsil berilgan. Mahsulotlar tannarxining mazkur elementini tekshirishda aniqlanadigan asosiy xato-bu xarajatlarning ishlab chiqarish yo'nalishi tamoyiliga rioya qilmaslikdir. Auditor ish haqi hisoblashga doir dastlabki hujjatlar (ish vaqtini hisobga olish tabeli,ishbay ishlar uchun naryadlar,hisoblashuv-to'lov vedomostlari)ni tekshirish chog'ida boshqa faoliyat turlari (qurilish,madaniymaishiy va sh.o')da band bo'lgan xodimlarning mehnatiga haq to'lash xarajatlarining asosiy faoliyatdagি mahsulotlar tannarxiga qo'shilish faktlarini aniqlashi kerak. Bunga 6710-«Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob kitoblar» va 6720-«Deponentlangan mehnat haqi» schyotlarining krediti bo'yicha ma'lumotlarning ishlab chiqarishga olib borilgan qismini, yig'ma mehnat haqi vedomostining uni hisoblash qismi bo'yicha jami ko'rsatkichlari bilan solishtirish orqali erishiladi. Qoidaga ko'ra, yig'ma vedomostning jami ma'lumotlari, ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oladigan schyotlarning debeti bo'yicha ma'lumotlarga qaraganda ko'p bo'lishi lozim. Auditor xatoliklarni aniqlash bilan birga ish haqi hisoblashda maqbul yo'llar bo'yicha takliflar ham berishi lozim. Korxonalarda bunday usullarni qo'llash korxona samaradorligini oshirishda albatta sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug'urta ajratmalari elementiga byudjetdan tashqari majburiy fondlarga qonunchilik bilan belgilangan me'yorlarga muvofiq ajratiladigan to'lovlar kiradi. Masalan, mehnat haqi fondidan sug'urta fondiga majburiy ajratmalar, nodavlat pensiya jamg'armalariga, ixtiyoriy tibbiy sug'urta va sug'urtaning boshqa turlariga ajratmalar, bandlik xizmatiga ajratmalar shular jumlasidandir. Bunday ajratmalarning mahsulotlar tannarxiga olib borilishini tekshirishda byudjetdan tashqari fondlarga to'lanadigan badallarni hisoblab

chiqarish manbalarining mehnat haqi fondining o'zini hisoblab chiqarish manbasiga bevosita bog'liq ekanligiga e'tibor berish zarur. Boshqacha qilib aytganda, to'lov manbasi qanday bo'lsa, badallarni to'lash manbasi ham shunday bo'ladi, bu esa yoxud tannarx, yoxud korxonaning o'z xususiy mablag'lari bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar eskirishi elementi bo'yicha xarajatlar tarkibiga asosiy ishlab chiqarish vositalarining, shu jumladan moliyaviy lizing asosida olinganlarni ham qo'shgan holda dastlabki (tiklash) qiymatiga nisbatan belgilangan tartibda tasdiqlangan me'yorlar, jadallashtirilgan amortizatsiyani ham qo'shib, hisoblangan amortizatsiya ajratmalar (hisoblangan eskirish) summalarini kiradi. Ta'kidlash joizki, №5 -«Asosiy vositalar» nomli BHMSga muvofiq asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning quyidagi usullari tavsiya qilinadi: Bir tekis (to'g'ri chiziqli) usul; Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib usul (ishlab chiqarish usuli); Asosiy vositalar foydali xizmat qilish muddati yillar sonining yig'indisi bo'yicha hisobdan o'chirish usuli (kumulyativ usul); Kamayib boruvchi qoldiq usuli. Auditor korxonada ushbu usullardan bittasi tanlab olinib, hisob yuritish siyosati to'g'risidagi buyruq bilan rasmiylashtirilganligini aniqlashi lozim.

Shuningdek, tanlangan usulning hisobot yili davomida o'zgarmaganligiga, agar o'zgargan bo'lsa sababini va bu haqda hisob yuritish siyosati to'g'risidagi buyruqqa o'zgartish kiritilganligiga e'tibor berishi kerak. Asosiy vositalar ob'ektlarining foydali xizmat qilish muddatlari ularni balansga qabul qilish paytida aniqlanadi. Amortizatsiya hisoblash asosiy vositalar ob'ektlarining butun foydali xizmat qilish muddati davomida to'xtatilmaydi. Faqat korxona rahbarining qaroriga muvofiq qayta jihozlash (rekonstruktsiya) va zamonaviylashtirish (modernizatsiya) uchun o'tkazilgan, hamda konservatsiyaga qo'yilgan asosiy vositalar bundan mustasno. Amortizatsiya ajratmalarini hisoblash yillik summasi quyidagicha aniqlanadi: Bir tekis (to'g'ri chiziqli) usulda -muayyan asosiy vosita ob'ektining dastlabki qiymati, amortizatsiya me'yori va foydali xizmat qilish muddatidan kelib chiqib aniqlanadi. Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib usul (ishlab chiqarish usuli) bo'yicha amortizatsiya hisoblash faqat asosiy vositadan

foydalinish natijasiga asoslanib, uni hisoblash chog'ida vaqt oralig'i rol o'ynamaydi.

Masalan, stanokning dastlabki qiymati 800000 so'm, qoldiq qiymati 50000 so'm va foydali xizmat qilish muddati davomida ishlab chiqarishi lozim bo'lgan mahsulot esa 60000 dona mahsulot.

Bunda 1 dona mahsulotga to'g'ri keladigan amortizatsiya xarajatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Dastlabki qiymat} - \text{qoldiq qiymat} = 800000 - 50000 = 12,5 \text{ s}$$

ish birligi hajmi 60000 Bir yilda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori 12,5 so'mga ko'paytirilib, bir yillik amortizatsiya summasi aniqlanadi.

Masalan, stanok birinchi yili 10000 ta mahsulot ishlab chiqarish rejallashtirilgan. Demak, birinchi yil uchun amortizatsiya summasi:

$$10000 \text{ ta } x 12,5 = 125000 \text{ so'm.}$$

3. Asosiy vositalar foydali xizmat qilish muddati davomidagi yillar sonining yig'indisi bo'yicha hisobdan o'chirish usuli (kumulyativ usul) muayyan asosiy vositaning foydali xizmat qilish muddati davomidagi yillar yig'indisi asosida aniqlanib, ushbu yig'indi hisob-kitob koeffitsienti uchun maxraj qilib olinadi.

Foydali xizmat qilish muddati davomidagi yillar soni esa surat qilinib, kamayib borish tartibida teskari joylashtiriladi. Masalan, stanokning xizmat muddati 5 yil. Xizmat yillari yig'indisi (kumulyativ son) 15 ga teng ($1+2+3+4+5 = 15$).

So'ngra har bir koeffitsient (kasr) amortizatsiyalanadigan qiymatga ko'paytirilib, tegishli yil uchun amortizatsiya summasi aniqlanadi.

4. Kamayib boruvchi qoldiq usuli kumulyativ usuldagagi tamoyilga asoslangan bo'lib, istalgan qat'iy stavka (%) qo'llanilishi mumkin. Bunday stavka (%) sifatida ko'p hollarda bir tekis (to'g'ri chiziqli) usulda qo'llaniladigan amortizatsiya me'yorining ikkiga ko'paytirilgan miqdori olinadi va har yil boshidagi qoldiq

qiymatidan shu yil uchun eskirish summasi hisoblab chiqariladi. Auditor korxonada qo'llanilayotgan amortizatsiya hisoblash usuli bo'yicha hisob-kitoblarning to'g'riliгини ham tekshirishi zarur. Shuningdek, asosiy vositalar ob'ektlari bo'yicha amortizatsiya ajratmalari hisoblash usulidan qat'iy nazar, yil davomida har oyda yillik summaning 1/12 qismi hajmida hisoblab borilganligini aniqlash kerak. Asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari qaysi hisobot davridan hisoblangan bo'lsa, buxgalteriya hisobi va hisobotda shu davrda aks ettirilishi, hamda korxonaning hisobot davridagi moliyaviy natijasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar (foyda yoki zarar) hisoblanishini ham nazarda tutish zarur. Bulardan tashqari, xo' alik yurituvchi sub'ekt tomonidan, ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lган nomoddiy aktivlarning dastlabki qiymati va foydali xizmat qilish muddati (biroq xo'j alik yurituvchi sub'ektning faoliyat qilish muddatidan oshmagan muddat)dan kelib chiqib hisoblangan, me'yorlar bo'yicha har oyda mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga olib boriladigan eskirish summalari ham ushbu elementga kiradi. Bunda auditor foydali xizmat qilish muddatini aniqlash imkonи bo'lмаган nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirish me'yori besh yil muddat hisobidan kelib chiqib aniqlanishini, biroq bu muddat xo' alik yurituvchi sub'ektning faoliyat muddatidan oshib ketmasligini nazarda tutishi kerak. Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lган boshqa xarajatlar ro'yxati «Xarajatlar tarkibi.... to'g'risidagi Nizom»da batafsил keltirilgan. Jumladan, ishlab chiqarish jarayonlariga xizmat ko'rsatish xarajatlari; ishlab chiqarishni xom ashyo, materiallar, yonilg'i, energiya, dastgohlar, moslamalar va boshqa mehnat vositalari hamda buyumlari bilan ta'minlash xarajatlari; asosiy ishlab chiqarish vositalarini ishchi holatida saqlash xarajatlari; asosiy ishlab chiqarish vositalarini xo' alik usuli bilan barcha turdagи (joriy, o'rtа, kapital) ta'mirlashlar ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli moddalari bo'yicha mahsulot (ish,xizmat)lar tannarxiga kiritiladi. Bundan tashqari, zarur hollarda ayrim tarmoqlar xo' alik yurituvchi sub'ektlari O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining ruxsati bilan kapital ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zahira (manba) yaratishlari mumkin. Ushbu zahirani yaratish uchun qilingan ajratmalar ham mazkur element tarkibida aks

ettiriladi va ko'zda tutilayotgan xarajatlar qiymati hamda har bir asosiy vosita ob'ektini kapital ta'mirlashning davriyligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Zahira uchun ajratmalar me'yori har hisobot yili oxirida qayta ko'rib chiqilib, zarurat bo'lganda yangi moliya yili uchun o'zgartirilishi (ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi) mumkin. Agar kapital ta'mirlash uchun yaratilgan zahira mablag'larining summasi mazkur ob'ektni ta'mirlash uchun qilingan haqiqiy xarajatlar summasidan ortiqcha bo'lsa, oshib ketgan summa bo'yicha tuzatish kiritilishi kerak; agarda haqiqiy xarajatlar zahiradagidan oshib ketsa, u holda oshib ketgan summa «Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar» elementi tarkibida aks ettiriladi.

Yong'indan saqlash va qo'riqlashni hamda xo' alik yurituvchi sub'ektlarning texnikadan foydalanish qoidalarida ko'rsatilgan boshqa maxsus talablarni ta'minlash, ular faoliyatini nazorat qilish xarajatlari ham tekshiriladi. Idoradan tashqari qo'riqlash xarajatlarini, bunday qo'riqlash talab qilinadigan mazkur ishlab chiqarishga maxsus talablar mavjud bo'lgandagina, mahsulotlar tannarxiga kiritish mumkin. «Xarajatlar tarkibi..... to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq ishlab chiqarish faoliyatiga taalluqli joriy ijaraga olish bilan bog'liq xarajatlar ham mahsulotlar tannarxiga kiritiladi. Ijara to'lovlarini mahsulotlar tannarxiga kiritish bo'yicha Nizomda hech qanday cheklashlar ko'zda tutilmagan. Xususan, joriy tartibda ijaraga olingan asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlarini hisobdan o'chirish ko'plab munozarali masalalarni yuzaga keltiradi.


3.2 Parrandachilik korxonalarida asosiy ishlab chiqarish xarajatlari va tannarx kalkulyatsiyasi audit

Parrandachilik ishlab chiqarish korxonalarining asosiy xarajat turi bu ishlab chiqarish xarajatlari ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiaga olib boriladigan xarajat bo'lib hisoblanadi. Ishlab chiqarish xarajatlarini alohida murakkablik tamoni bu tur xarajatni qisqartirish yoki kamaytirish ozroq qiyinchilik tug'diradi. Chunki qilinadigan xarajatlarni kamaytirish bevosita mahsulot sifatitga o'z tasirini ko'rsatadi. Xarajat deganda malum maqsadlarda foydalanilgan resurslar hajmining puldag'i ifodasi tushuniladi⁶. Xarajatlar mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritilish usuli bo'yicha bevosita va bilvosita xarajatlarga ajratiladi. Parrandachilik korxonalarida bevosita xarajatlar – mahsulotning aniq turi talabidan hosil bo'ladi. Ularni dastlabki xujjatlar malumotlariga asoslanib sarflangan paytida mahsulotning malum turiga qo'shish mumkin. Bunday xarajatlarga quyidagi xarajatlarni kiritishimiz mumkin.



3-rasm: Mahsulot tannarxiga kiritiladigan bevosita xarajatlar tarkibi.

⁶ "Boshqaruv hisobi" – Majmua-2002.



3-chizma: Mahsulot tannarxiga kiritiladigan bilvosita xarajatlar tarkibi.

Parrandachilik korxonalarida bilvosita xarajatlar mahsulotning bir necha turi bo'yicha hosil bo'ladi. Odatda bilvosita xarajatga ishlab chiqarilgan mahsulotning malum turiga qo'shib bo'lmaydigan ishlab chiqarishning ustama sarflari kiradi, shuning uchun xarajatlarning umumiyligi summasini maxsus stavkalar asosida mahsulotga taqsimlaydilar. Ishlab chiqarish ustama xarajatlari mahsulot bilan to'g'ridan-to'g'ri identifikatsiyalangan hollarda ular bevosita xarajatlarga qo'shiladi. Parrandachilik korxonalarida aosiy ishlab chiqarish xarajatlari va mahsular tannarxi auditini o'tkazish korxona faoliyati uchun juda zarur hisoblanadi.

Parrandachilik korxonalarida xarajatlar auditi quyidagilarni tekshirish orqali amalga oshiriladi :

- 1- Xarajatlarni hisobi yuritiladigan schyotlar
 - 2010-asosiy ishlab chiqarish xarajatlari schyotlari
 - 2310-Yordamchi ishhlab chiqarish schyotlari
 - 2510-umum ishlab chiqarish xarajatlari schyotlari
 - 9410-9440 –davr xarajatlarini hisobga oluvchi xarajatlar schyotlari
 - 3110-3190 – kelgusi davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlari
- 1 - Xarajatlar hisobi yuritiladigan hisob registrlari;
- 2 - Bosh kitob ;
- 3 - Korxonaning moliyaviy hisobot malumotlari ;

4 - Korxonada ishlab chiqariladigan maxsulotlar tannarxi kalkulatsiya hisob kitoblari .

Korxonada ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxi kalkulatsiyasi jarayonli kalkulatsiya turi bo'yicha yuritilgan .

3.3 Parrandachilik korxonalarida yordamchi va umum ishlab chiqarish xarajatlari va ular taqsimotining auditi


Parrandachilik korxonalarida asosiy ishlab chiqarishdan tashqari Yordamchi va umum ishlab chiqarish xarajatlari ham mavjud bo'lib ,ular:

2310-“Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari”

2510-“umum ishlab chiqarish xarajatlari schyotlari”da yuritiladi .

Parrandachilik korxonalarida ishlab chiqarish ustama xarajatlari mahsulot bilan to'g'ridan-to'g'ri identifikasiyalangan hollarda ular bevosita xarajatlarga qo'shiladi.

Bunday xarajatlarga quyidagi xarajat turlarini kiritishimiz mumkin.



4-chizma: Mahsulot tannarxiga olib boriladigan yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari.

Ishlab chiqarish xarajatlari “Ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi to'g'risida hisoboti”da yig'iladi. Ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi to'g'risidagi hisobot – ishlab chiqarish xarajatlari (asosiy mehnat, asosiy material sarflari va ishlab chiqarish ustama xarajatlari) yig'iladi hamda ishlab chiqarilgan

mahsulot to'g'risida hisobot va sotilgan mahsulot tannarxi to'g'risida hisobot tarzida ko'rsatiladi. Bu hisobotlar alohida tuzilishi yoki ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot tannarxi to'g'risidagi hisobotga birlashtirilishi mumkin. O'zi aslida ishlab chiqarish tannarxi nima? Ishlab chiqarish tannarxiga quyidagicha tarif berishimiz mumkin.

Parrandachilik korxonalarida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha audit o'tkazilganda quyidagi buxgalteriya yozuvlariga etibor qaratish kerak .

5- jadval

Yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2300)ning bog'lanishi

| T/ r | Xo'jalik muomalalarining mazmuni | Schyotlarning bog'lanishi | Debet | Kredit |
|---------|--|------------------------------|--------------|---------------|
| 1 | Yordamchi ishlab chiqarish sexlarida foydalaniyatgan asosiy vositalarning eskirishi | | 2310 | 0211-0299 |
| 2 | Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlariga taalluqli nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblandi | | 2310 | 0510-0590 |
| 3 | Yordamchi ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun materiallar sarflandi | | 2310 | 1010-1090 |
| 4 | Mahsulot olish uchun hayvonlarning so'yilishi | | 2310 | 1110, 1120 |
| 5 | Tugallanmagan mahsulotni qayta baholash a) qiymatining oshirilishi b) qiymatining kamaytirilishi | | 2310 3290 | 6230 2310 |
| 6 | Materiallar qiymatidagi farqlarni hisoblangan ulushlarda Yordamchi ishlab chiqarish schyotlariga | | 2310 | 1610 |

| | | | |
|----|---|------|--------------------------------|
| | hisobdan chiqarish | | |
| 7 | O‘zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarning yordamchi ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun sarflanishi | 2310 | 2110 |
| 8 | Umumishlabchiqarish xarajatlarining tegishli ulushi Yordamchi ishlab chiqarish mahsulotlari, ish va xizmatlari tannarxiga kiritilishi | 2310 | 2510 |
| 9 | Yordamchi ishlab chiqarish mahsulotlarini tayyorlashdagi yaroqsiz mahsulotdan ko‘rilgan yo‘qotishlar ularning tannarxiga kiritilishi | 2310 | 2610 |
| 10 | Kelgusi davrlar xarajatlarining ulushi yordamchi ishlab chiqarish mahsulotlari, ish va xizmatlari tannarxiga kiritildi | 2310 | 3110- 3190 3210- 3290 |
| 11 | Asosiy sexlarning mahsulotlari yordamchi ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun ishlataldi | 2310 | 2810 |
| 12 | Mol etkazib beruvchilardan yordamchi ishlab chiqarishga moddiy qiymatliklar va xizmatlar (suv, bug‘, energiya va xokazo) kelib tushdi | 2310 | 6010, 6990 |
| 13 | Qondirilmagan da’volar summasining yordamchi sexlarga tegishli bo‘lgan qismi ularning mahsuloti, ish va xizmatlari tannarxiga hisobdan chikarildi | 2310 | 4860 |
| 14 | Yordamchi ishlab chiqarishdagi sug‘urta xarajatlari | 2310 | 6510 |
| 15 | Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari bo‘yicha maqsadli davlat jamg‘armalariga ajratmalar | 2310 | 6520 |
| 16 | Yordamchi ishlab chiqarish xodimlariga mehnat haqi to‘lash bo‘yicha summalarning hisoblanishi | 2310 | 6710 |
| 17 | Yordamchi ishlab chiqarishga ko‘rsatilgan xizmatlari bo‘yicha turli korxonalarga bo‘lgan qarzlar | 2310 | 6990 |
| 18 | Olingan summadan ortiqcha xarajat qilganliklari | 2310 | 6970 |

| | | | |
|----|--|------|---------------|
| | uchun hisobdor shaxslarga bo‘lgan qarzlar | | |
| 19 | Ajratilgan bo‘limmalar, sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarning yordamchi ishlab chiqarish sexlariga ko‘rsatgan xizmatlari | 2310 | 6110, 6120 |
| 20 | Yordamchi ishlab chiqarishdagi tugallanmagan ishlab chiqarishning ortiqchasi kirim qilindi | 2310 | 9390 |

Ushbu buxgalteriya yozuvlarini tekshirish orqali yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari to’g’ri hisob –kitob qilinganligiga xolisona baho beriladi .

Ishlab chiqarish xarajatlari auditi bo'yicha auditorlik hisobotini va xulosasini shakllantirish ishlab chiqarish xarajatlari auditi rejasi va dasturining barcha bo'limlari bo'yicha o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish va baholash jarayonida vujudga keladi. Audit natijalarini baholash ishlari asosan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ishlab chiqarish xarajatlari auditi bo'yicha ishchi hujjatlarni sharhlash va yakuniy ishchi hujjatlarni tayyorlash;
- ishlab chiqarish xarajatlari tekshirish jarayonida aniqlangan kamchiliklarning ahamiyatlilik darajasini baholash;
- ishlab chiqarish xarajatlari tekshirish bo'yicha auditorlik dalil - isbotlarning etarliligini baholash;
- amal qilayotgan korxona printsipi bilan bog'lik omillarni baholash;
- tekshiruv natijalari bo'yicha auditorning mijoz korxona rahbariyatiga taqdim qiladigan yozma axborotini tuzish;
- auditorlik hisoboti va xulosasini tuzish.

Ishlab chiqarish xarajatlari auditorlik tekshiruvi o'tkazish chog'ida boshqa bo'limlar tekshiruvi kabi asosan tekshirilayotgan xo' alik yurituvchi sub'ektning

dastlabki hujjatlari, hisob registrlari va hisobotlarida aks ettirilgan haqiqiy axborotlar tahlil qilinadi va baholanadi. Faqat ayrim hollardagina auditorlar taxmin va hisob-kitoblarga asoslangan moliyaviy axborotlarni baholaydi. Ta'kidlash joizki, tekshiruv natijalari va xo' alik yurituvchi sub'ekt mutaxassislarining hisob-kitoblarini baholashda auditorlar ma'lum darajada professional ehtiyyotkorlikka rioya qilishlari zarur.

Auditor quyidagi hollardagi kabi katta nomuvofiqliklar mavjudligini ko'rsatuvchi holatlarni ob'ektiv baholashi zarur:

- xarajatlarni taqsimlash, tannarxni aniqlash vash u kabilar yuzasidan xo' alik yurituvchi sub'ekt xodimlariga ma'lum bo'lgan, ammo auditor tomonidan ochilmagan xatolarni aniqlash faktlari;
- tekshiruv uchun zarur bo'lgan, auditorga o'z vaqtida taqdim qilinmagan xarajatlar bilan bog'liq dastlabki hujjatlar yoki ma'lumotlarga doir xo' alik muomalalari;
- mutaxassislarning hisob-kitoblaridagi nomuvofiqliklar;
- inventarizatsiya natijasida aniqlanib, dalolatnomalar va taqqoslash vedomostlari bilan rasmiylashtirilgan, lekin etarli darajada tahlil qilinmagan va tuzatilmagan katta tafovutlar;
- katta tafovutlarning tasdiqlanmaganligi va auditor so'rovlariga kutilgan javoblar olinmaganligi;
- tekshiruv uchun tanlab olingan, zarur dastlabki hujjatlar yoki tegishli ruxsat etuvchi ko'rsatmalar taqdim qilinmagan xo' alik muomalalari. Auditor mahsulot tannarxi bo'yicha to'plangan dalil - isbotlar etarliliginib baholashda ushbu holatlar aniqlangan bosqichni (rejalashtirish, audit o'tkazish) hisobga olishi kerak. Shuningdek, katta xatolar xatarini dastlabki baholash va batafsil tekshirish rejali ham e'tiborga olinishi lozim. Agar bunday holatlar rejalahtirish bosqichida aniqlangan va hisobga olingan bo'lsa, unda auditor to'plangan dalil-isbotlarning etarliligiga va rejalahtirilgan hamda qo'shimcha auditorlik amallarini bajarishning

maqsadga muvofiqligiga baho berishi zarur. Auditorlik tekshiruvining asosiy bosqichlarini o'tkazish natijalari audit o'tkazishdan qo'yilgan maqsadga erishilganlik darajasini baholagan holda auditorning ishchi hujjatlarida qaid qilinishi lozim. Yozma shaklda olingan dalil-isbotlarni eng ishonchli deb tan olish qabul qilingan. Yozma tasdiqlarning ishonchliligi ularning to'g'ri rasmiylashtirilishiga bog'liq. Tasdiqlar ishonchliligining tahlilidan kelib chiqib, tasdiqlangan va tasdiqlanmagan summalarining katta-kichikligi, shuningdek majburiyatlarning ishonchliligi to'g'risida auditor fikrini shakllantirish uchun olingan dalil-isbotlar etarliligi baholanadi; Ishlab chiqarish xarajatlari analitik hisobi ma'lumotlarining tengligini tekshirish. Dastlabki hujjatlarni tekshirib chiqish yoki bo'limlar bo'yicha xarajatlarning amalga oshirilgani tasdig'ini olish munosabati bilan auditorlar xarajatlarni hisobga oladigan analitik hisob registrlarini tekshirib chiqishi, hamda ularni Bosh daftар ma'lumotlari bilan taqqoslashi lozim. Xarajatlar muomalalari hisobga olinadigan schyotlarni tahlil qilishda quyidagilar aniqlanishi mumkin:

- tugallanmagan ishlab chiqarish schyotlari buyicha debet qoldiklar;
- xarajatlarning mahsulot tannarxiga olib borilishi bo'yicha haddan tashqari katta tuzatishlar;
- yaroqsiz mahsulotlar qiymatini ishlab chiqarilagan mahsulotlar tannarxiga o'tkazish bo'yicha hujjatlar;
- yordamchi ishlab chiqarishga qilingan xarajatlarning ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxiga olib borish bo'yicha me'yorlar;
- bilvosita xarajatlarning mahsulot tannarxiga to'g'ri taqsimlanishi bo'yicha me'yorlar.

Barcha belgi qo'yilgan summalar yakuniy ishchi hujjatlarini tayyorlashda tahlil qilinishi va hisobga olinishi lozim. Ushbu ishlarning natijalarini boshqa olingan dalil-isbotlar bilan taqqoslash maqsadga muvofiq.

IV BOB. KORXONA HAYOT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning faoliyati samaradorligi va xodimlarning mehnat unumdorligini oshirish uning hayot xavfsizligiga bevosita bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining “Mehnat Kodeksi” va “Fuqarolik Kodesi” talablari bo‘yicha korxonalarda xodimlarga ma’lum shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Bunday sharoitlarni korxona rahbariyati tomonidan yaratiladi. Ishchixizmatchilarga mehnat sharoitlarini yaratish bo‘yicha ma’muriyatning majburiyati va vazifalari ishchi-hodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasida ko‘rsatiladi.

Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti bo‘lgan “SAMARQAND PARRANDA” AJ o‘zining ustaviga ega. Ushbu ustavda asosan uning faoliyati quyidagi vazifalarga qaratilgan.

Korxonaning asosiy faoliyati tuxum va go’sht mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan.

Mazkur jamiyat qonun xujjatlari bilan takiklanmagan va ta’sis xujjatida kursatilmagan boshka faoliyat turlari bilan xam konun xujjatlarida belgilangan tartibda shug‘ullanishi mumkin.

Jamiyat faoliyat turlarini amalga oshirilishi uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya)ga ega.Korxonada hayot xavfsizligini ta’minalash va xodimlarning unumli mehnati uchun shart-sharoitlar yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va unga asosan qabul qilingan “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunda har bir korxonada ishlab chiqarish jarayoni va usullari, mulk shaklidan qat’iy nazar mehnatni muhofaza qilishni ta’minalashi ko‘zda tutilgan. Korxona hodimlarining sog‘lig‘i va mehnatni muhofaza qilish muhim vazifalardan ekanligi e’tirof etilgan. Mamlakatimiz Konstitutsianing 37-moddasida «Barcha yollanib ishlayotgan fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqt va haq to‘lanadigan mehnat ta’tilining muddati qonun bilan belgilanadi», 39-moddadasida esa «Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan

foydanish huquqiga ega» deyilgan.⁷ Ushbu vazifalar korxonalarda hodimlarga tibbiyat xizmati hech bir cheklanishlarsiz, turli-tuman tibbiy xizmatlarni tashkil etilishi, o‘zlarining davolash muassasalariga ega bo‘lishlari va ishchilarning malakali tibbiyat xizmatidan foydanishlariga imkoniyat yaratadi.

Yurtimiz fuqarolarning mehnati muhofazasi O‘zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida» qonuni, Mehnat Kodeksi, vazirlar mahkamasining «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risida Nizom» vaboshqa meyoriy hujjatlarda turli davlat standartlari va ko‘rsatmalari asosida huquqiy jihatdan asoslangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Mehnat Kodeksi”da(8-24- moddalar) hodimlarning mehnat muhofazasi, muhofaza talablariga to‘g‘ri rioya qilish, xavfsiz sharoitlarni ta’minalash, muhofaza xizmatlari va ijtimoiy sug‘urta, me’yoriy hujjatlarni buzganlik uchun javobgarlik masalalari keng o‘rin olgan. Korxonalarning hayot xavfsizligi yong‘in xavfsizligini, avariya holatlarini oldini olish, ishchi-xodimlarning salomatligini ta’minalash kabi masalalarni o‘z ichiga oladi.

Amaldagi qonunchilikda ayollarning mehnati, ularning muhofazasini ta’minalash masalasi alohida o‘rin egallaydi Ayollarning oiladagi mavqeni hisobga olinib ular uchun alohida imtiyozlar belgilangan. Ayollar sog‘ligiga zarar keltiradigan ishlarga ayollarni jalb qilish ta’qiqlangan. Ayollarning zaharli moddalar ajralishi bilan bog‘liq bo‘lgan, er osti va boshqa ishlarda ishlashlariga yo‘l qo‘yilmaydi.Homilador va emizuvchi ayollarga maxsus sharoitlar yaratiladi. Bunday ayollarni va 8 yoshgacha farzandi bo‘lgan ayollarni , dam olish kunlaridan ishlarga jalb qilish va xizmat safarlariga yuborish taqiqlanadi.Korxona ma’muriyati bunday ayollarni tibbiyat hakamlari xulosasiga asosan, o‘rtacha ish haqini saqlagan holda engil ishlarga jalb qilishi kerak. Ayollarga tug‘ish oldidan va tuqqandan keyin 56 kalendar kundan haq to‘lanadigan dam olish kunlari

⁷ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2012

belgilangan. Sanoat mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarida ishlovchi ayollar uchun maxsus xonalar (bola emizish xonalari, dush xonalari va shaxsiy gigiena xonalari) tashkil qilinadi.

Mehnat qonunchiligidagi o'smirlar mehnatidan tunggi ishlarda, ishdan keyin qolib ishlanadigan ishlarda, dam olish kunlarida foydalanish qatiy taqiqlanadi. Qonunchilikda 18 yoshga to'lmagan o'smir bolalarga faqat 16 kg gacha, qizlarga esa 10 kg gacha bo'lgan og'irlikdagi yuklarni ko'tarishlari ko'zda tutilgan. O'smirlar ishga qabul qilinayotgan vaqtda albatta tibbiyot ko'riganidan o'tkazishlari shart. O'smir bajarayotgan ish, uning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani sezilsa, u darhol xavfsiz va engilroq ishga o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi talablari bo'yicha har bir korxona o'z ishchi va xizmatchilariga ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbiriylar choralarni ishlab chiqishi kerak. Hodimlarning mehnat xavfsizligi borasida yo'l qo'yilgan har qanday kamchiliklar uchun korxona ma'muriyati jarimaga tortiladi.

Xulosa

Bugun O‘zbekistonda barcha sohalarda katta-katta islohotlar, o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bu iqtisodiyot sohasi bo‘ladimi, ijtimoiy soha bo‘ladimi, qishloq xo‘jaligi bo‘ladimi umuman barchasi birdek, jadal o‘sib kelmoqda. Parrandachilik sohasida xam katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritayyotgan korxonalar soni ham kopayib bormoqda hamda ularning faoliyati kengayib bormoqda bu borada respublikamizda ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar uchun keng imkoniyatlar yaratilib berilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishimdan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, iqtisodiyotimiz rivojlanishining bugungi bosqichida ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar muhim o‘ringa ega hisoblanadi. Bugungi kundagi mamlakatimizning iqtisodiyotida rivojlantirish uchun eng avvalo ishlab chiqarish sub’ektlari samaradorligini yanada yaxshilash kerak.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimni “Samarqand parranda” AJ misolida yozdim. “Samarqand parranda” AJ da bitiruv malakaviy ishni bajarish natijasida nazariy bilimlarimni korxonaning buxgalteriya malumotlari bilan mustahkamladim. Buxgalteriya hisobi va auditni o‘rganishda bitiruv malakaviy ishimni o‘rni muhum ahamiyat kasb etdi.

Bitiruv malakaviy ishni tayyorlash jarayonida menga berilgan vazifalarni bajarish natijasida nazariy olgan bilimlarimni hisob va audit hisobotlarida aks ettirilishini yana bir bor o‘rganib chiqdim.

“Samarqand parranda” AJ ning asosiy faoliyati buxgalteriya hisobini o‘rgangan holda xarajatlar hisobi bo‘yicha ba’zi kamchiliklar borligini e’tirof etishimiz kerak. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan Mahsulot tannarxini pasaytirish uchun xarajatlarni kamaytirish kerak . Buning uchun tuxum va go’sht mahsulotlarini ishlab chiqarishga sarflanadigan ozuqa mahsulotlarini korxonaning o‘zida yordamchi ishlab chiqarish tashkil etgan holda ishlab chiqarishni joriy etish kerak .

Ikkinchidan “Samarqand parranda” AJ o‘zlarining buxgalteriya hisoblarini xalqaro standartlarga moslashtirsa yana ham ko‘proq foydaga erishishi mumkin. Chunki hisobning xalqaro standartlari yordamida AJ ga yanada ko‘proq chet ellik investorlanri jalb qilish mumkin.

Uchinchidan Korxonada amalga oshirilgan xarajatlar tarkibidagi ustama xarajatlarni mahsulotlar tannarxiga kiritilishida maqbul usullarni tanlab olinishi kerak.

“Samarqand parranda” AJda yuqorida biz bergen taklif va tavsiyalar korxona amaliyotiga joriy qilinsa AJ da buxgalteriya hisobini yuritishda qulaylikka erishiladi deb o‘ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLR RO‘YXATI

I. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T.: O‘zbekiston, 2003y.
1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va qarorlari
3. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” “Xalq so‘zi”, 2017yil, 8 fevral

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari
2. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni (yangi tahriri) 2016 yil 13 aprel
3. O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni (yangi tahrirda) 2000 yil 26 may
4. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi
9. «Moliyaviy hisobot shakllarini to‘ldirish qoidalari» O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrdagi 140-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi haqidagi Nizom» (keyingi o‘zgarish va qo‘srimchalar bilan)
11. 1 – son (BHMS) “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 26 iyunnda 17-17/86-ton buyrug‘i bilan tisdiqlangan
12. 3 – son (BHMS) “Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot”. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 25 avgustda 43- son buyrug‘i bilan tasdiqlangan

13. 15- son (BHMS) “Buxgalteriya balansi”. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2003 yil 12 martdagi 45- son buyrug‘i bilan tasdiqlangan
14. 21-son «Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schetlar rejasi va uni qo‘llash haqida yo‘riqnomalar» nomli BHMS. 2002 yil 9 sentyabrda 103-son bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan va 2002 yil 23 oktyabrdagi 1181-son bilan Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan
15. 21 – son (AFMS) “Auditni rejalashtirish”. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1999 yil 14 iyunda 54-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan
16. 70 – son (AFMS) “Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot to‘g‘risidagi auditorlik xulosasi”. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2001 yil 14 fevraldagi 20 – son buyruhi bilan tasdiqlangan

II. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

17. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Samarqand 2014 y.
18. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. O‘quv qullanma. – T.: O‘qituvchi, 2004 y.
19. Musaev H.N, Fayziev SH.N, «Moliyaviy hisobot auditi» fanidan o‘quv - uslubiy majmua , SamISI, 2011 y.
20. Musaev H.N, Fayziev SH.N, «Moliyaviy hisobot auditi» fanidan o‘quv - uslubiy majmua , SamISI, 2011 y.
21. R.D. Do‘stmuradov va boshqalar “Audit” o‘quv qo‘llanma. T.: “Iqtisod-Moliya”, 2007 y .
22. SH.N.Fayziev, O.A.Masharipov “Auditning bosqichlari va hujjatlari” Uslubiy qo‘llanma. T.: TMI, 2009 y.
23. S.N.Toshnazarov “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va echimlar” monografiya, T.: “Navruz” 2016y.
24. S.N.Toshnazarov “Buxgalteriya balansini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish”, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron

jurnali. № 4,iyun-avgust, 2016 y.

16. M.Umarova, O‘. Eshboev, K. Axmadjonov “Buxgalteriya hisobi” – T.: 2010 y.

III. Internet saytlari

1. <http://www.gov.uz>
2. <http://www.mf.uz>
3. <http://www.lex.uz>